MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Qudratov Javli Xolbuzarovich**, o‘qituvchi [**Кудратов Джавли Холбузарович,** учитель], [**Javli Kh. Kuhratov,** teacher]; manzil: O‘zbekiston, 117036, Qashqadaryo, Kitob, Yakabog’ ko‘chasi 2 uy [адрес: Узбекистан, 117036, Кашкадарья, Китоп, улица якабаг, дом 2], [address: Uzbekistan, 117036, Kashkadarya, Kitop, Jakabog Street 2 houses];

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Original paper

SHAXSNING BADIIY MADANIYATI VA MA'NAVIYATINI RIVOJLANISHIDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI

© A.E.Turaqulov[1]✉

[1]Termiz davlat universitetuti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at mashg'ulotlarini tashkil etishning mazmunli va samarali metodlari shu maqsadda tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishida «Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» fani o'qitiladi. Bu fanning asosiy maqsadi talabalarni boshlangich sinflardagi «Tasviriy san'at» darslarini o'qitishga tayyorlash, tabiatdagi hamda tasviriy san'at asarlaridagi go'zallikni ko'ra bilish va idrok etish, badiiy did, ko'rish xotirasi, rangni sezish, fazoviy tasavvur, kuzatuvchanlik va badiiy ijodiy qobiliyatiami o'stirishdan iborat.

MAQSAD: ta'lim muassasalarida umumta'lim maktablarida o'quvchilarga tasviriy san'at fanini yanada chuqurroq o'rgatish va ranglardan qanday foydalanish metodlarini o'rgatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: umumiy o'rta ta'lim maktablarining qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya mashg'ulotlari jarayoni hisoblanadi Tasviriy san'at o'qitish metodikasi mashg'ulotlarida fanning nazariyasi va o'qitish usullari, shuningdek, tasviriy san'at asoslari hamda uning tarixi masalalariga alohida e'tibor berilgan. «Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» kitobi ketma-ketlik bosqichlari asosida tasvirlar chizish, mustaqil ravishda tasviriy va amaliy mavzularga kompozitsiyalar ishlash, loy va plastilindan har xil narsalar haykalchalarini yasash, rang xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish, tasviriy san'at tarixi asoslarini o'rganish hamda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida tasviriy san'at o'qitish metodikasiga oid materiallami o'z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: umumiy o'rta ta'lim maktabarida maqsadga muvofiq tashkil etilgan tasviriy san'at mashg'ulotlari talabalarda quyidagi bilim va ko'nikmalarni Shakllantirishi mumkin;

- ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiyadan nazariy va amaliy bilimlarini yuksaltirish va bilganlarini o'quvchi yoshlarga yetkaza olish qobiliyatini o'stirish;
- tasviriy va amaliy san'atga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish;
- badiiy ijodga yo'naltirish.

XULOSA: maktab o'qituvchilariga metodik qo'lllanmalar ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish metodlarini ko'rsatib berishdan iborat. Bo'lajak tasviriy san'at

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

o‘qituvchilarini tasviriy san’at bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini Shakllantirish hamda o‘z kasbining malakali mutaxassisi bo‘lib yetishishlariga erishishga o‘stirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: idrok etish, badiiy did, ko'rish xotirasi, rangni sezish, fazoviy tasavvur, kuzatuvchanlik, naqoshlik, tasviri.

Iqtibos uchun: Turaqulov A.E. Shaxsning badiiy madaniyati va ma’naviyatini rivojlanishida tasviriy san’atning o‘rni // Inter education & global study. 2024. № 3(1). B. 38–47.

В РАЗВИТИИ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ И ДУХОВНОСТИ ЧЕЛОВЕКА МЕСТО ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

© А.Э.Туракулов[1]✉
[1]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье представлены содержательные и эффективные методы организации занятий изобразительным искусством в общеобразовательных школах с этой целью в области изобразительного искусства и инженерной графики образования и преподается методика воспитательной работы «Образование изобразительного искусства». Основная цель данного предмета – подготовить учащихся к преподаванию занятий «Изобразительное искусство» в начальных классах, видеть и воспринимать красоту в природе и произведениях изобразительного искусства, художественный вкус, зрительную память, цветовосприятие, пространственное воображение., наблюдательность и художественное воображение. креативность.

ЦЕЛЬ: обучить учащихся общеобразовательных учреждений образовательных

МАТЕРИАЛ И МЕТОДЫ: это процесс рисования, живописи и композиции на занятиях общеобразовательной средней школы. Особое внимание уделяется теории и методике преподавания наук, а также основам изобразительного искусства и его истории. Уделяется внимание. Книга «Методика преподавания изобразительного искусства» учит рисовать изображения на основе последовательных этапов, самостоятельно создавать композиции на изобразительную и практическую тематику, изготавливать фигурки различных предметов из глины и пластилина, знакомиться с особенностями цвета, изучать основы истории изобразительного искусства.«Обучение» и включает материал по методике преподавания изобразительного искусства в начальных классах общеобразовательных школ.

учреждений науке изобразительного искусства и научить их пользоваться цветами.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: занятия изобразительным искусством, организованные в библиотеке общего среднего образования, позволяют сформировать у учащихся следующие знания и умения;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

- развитие творческих способностей;
- совершенствовать теоретические и практические знания по рисунку, живописи и композиции и развивать умение донести до юных школьников свои знания;
- пробудить чувство любви к изобразительному и практическому искусству;
- ориентация на художественное творчество.

ВЫВОД: показать учителям школ, как разрабатывать методические пособия и эффективно их использовать. Он служит развитию у будущих учителей изобразительного искусства теоретических и практических знаний в области изобразительного искусства и становлению квалифицированными специалистами своей профессии.

Ключевые слова: восприятие, художественный вкус, зрительная память, цветовосприятие, пространственное воображение, наблюдательность, живопись, образ.

Для цитирования: Туракулов А.Э. В. Развитии художественной культуры и духовности человека место изобразительного искусства. // Inter education & global study. 2024. № 3(1). С. 38–47.

THE ROLE OF FINE ART IN THE DEVELOPMENT OF PERSONAL ARTISTIC CULTURE AND SPIRITUALITY

© Anvar E. Turakulov [1]✉
[1]Termez State University, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in this article, meaningful and effective methods of organizing visual art classes in general secondary schools are presented for this purpose in the field of visual art and engineering graphics education and educational work "Education of visual art" methodology" is taught. The main purpose of this subject is to prepare students for teaching "Fine Art" classes in elementary grades, to see and perceive beauty in nature and works of fine art, artistic taste, visual memory, color perception, spatial imagination. , observation and artistic creativity.

AIM: to teach students in general education in educational institutions the science of fine arts and to teach them how to use colors.

MATERIALS AND METHODS: it is the process of drawing, painting and composition classes of general secondary schools. Special attention is paid to the theory and teaching methods of science, as well as the basics of fine art and its history. 'attention is given. The book "Methodology of Fine Art Teaching" teaches you how to draw images based on sequential stages, independently create compositions on visual and practical subjects, make figurines of various objects from clay and plasticine, familiarize yourself with the characteristics of color, learn the basics of the history of visual arts. "learning" and includes material on teaching methods of fine arts in primary classes of general education schools.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

DISCUSSION AND RESULTS: visual arts classes organized in a general secondary education library can form the following knowledge and skills in students;

- development of creative abilities;
- to improve theoretical and practical knowledge of drawing, painting and composition and to develop the ability to convey what they know to young students;
- to awaken a feeling of love for visual and practical art;
- orientation to artistic creativity.

CONCLUSION: it is to show school teachers how to develop methodical manuals and use them effectively. It serves to develop the future teachers of fine arts to develop their theoretical and practical knowledge of fine arts and to become qualified specialists of their profession.

Key words: perception, artistic taste, visual memory, color perception, spatial imagination, observation, painting, image.

For citation: Anvar E. Turakulov (2024) 'The role of fine art in the development of personal artistic culture and spirituality', Inter education & global study, (3(1)), pp. 38–47 (In Uzbek).

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to'xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o'qitiladigan deyarli barcha o'quv predmetlari bilan bog'lanadi va ular yuzasidan materiallarni o'zlashtirishga samarali ta'sir korsatadi. Ayniqsa u o'qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at, hattoki, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo'lsada u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Maktabda tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga yonaltirilgan asosiy o'quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yonalishlarda amalga oshiriladi: O'quvchilarning tabiat, sanat va hayotdagi go'zalliklarni idrok etishga o'rgatish: O'quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go'zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go'zallikni xunuk voqea va narsalardan farqlay bilishga o'rgatish; Shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o'zini ko'rsata bilishga, hatti-harakatini qo'llabquvvatlash va hayotga go'zallik kiritish malakalarini o'stirish: Bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Tasviriy sanat oquv predmetining muhim vazifalaridan biri u bolalarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivijlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, odamzod tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90% dan ortig'ini ko'z orqali oladi, qolgan 10% ni quloq, burun, og'iz v.b. a'zolar orqali o'zlashtiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko'z va xotirani rivojlantirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg'ulotlarida, shuningdek, naturadan tasvirlash, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bunday darslarda o'quvchilar narsalar va hodisalarning tuzilishi, shakli , rangi,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

o’lchovlari, fazoviy joylashishi, harakat go’zalligini kuzatadilar hamda ularni o’z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar.

Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo’ladilar. Masalan, kuzatuvchanligi rivojlanmagan kishilar gulni kuzatar ekanlar, unga nisbatan yuzaki yondoshadilar,ya’ni gul bandi, guli, yaproqlari, gul rangiga o’z e’tiborlarini qaratadilar.

Kuzatuvchanligi rivojlangan kishilar esa gullarning gul bandi, guli, yap-roqlari va boshqalarning o’lchovlari, o’lchov nisbatlari, har bir qismning rangi, yaproq va gulbarglarning joylashuvini bir ko’rishdayoq eslab qoladilar.

Bolalarning kuzatuvchanligi va sinchkovligi, o’z o’rnida narsalar haqidagi ma’lumotlarni xotirada yaxshi saqlanib qolishga ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun ham xotirani ayniqsa, ko’z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san’at o’quv predmetining qanchalik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi.

Tasviriy san’at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me’morchilik san’atlari asarlarini o’qishga o’rgatishdir. Tasviriy san’at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma’lum bir mazmunni aks ettiradi. Biroq uni kitob o’qigandek oqib bo’lmaydi. Tasviriy san’at asarlarini o’ziga xos tili bor.

Ularni bilgan kishilargina o’qiy oladilar. Xususan rassomlar, chiziqlar, ranglar, o’lchovlar, kompazitsiya, proportsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

Tasviriy san’at o’quv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bolibgina qolmay balki, axloqiy tarbiyada ham salmoqli o’rinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san’at darslari yoshlarda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalbinnal tarbiyada, do’stlik va o’zaro yordam g’oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega. Maktab tasviriy san’at dasturiga nazar solar ekanmiz unda Vatanimizning buyuk o’tmishi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, O’zbekistonning nafosatga to’la tabiati, xalqlar do’stligi g’oyalarini ifoda etuvchi tasviriy san’at asarlari bilan tolib toshganligining shohidi bo’lamiz.

Masalan ona tuproq uchun kurash olib borgan, Amir Temur, Jaloliddin Man-guberdi, Spitamen, Muqnna kabi buyuk vatandoshlarimiz hayoti va obrazlarini, O’zbekistonning rango-rang go’zal manzaralarini, o’zbek xalqining Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv mehnat qilayotganligini tasvirlovchi tasviriy san’at asarlari mavjud.1-rasm

Ularni o’rganish jarayonida bolalar san`atning qonun va qoidalari bilan tanishadilar, yuqorida qayd qilingan mazmunda rasmlar ishlaydilar. San’atkor o‘z asarida voqea, hodisa, holatning ma’lum bir zumdagi ko‘rinishini ifodalab, u tasvir orqali rivojini, mohiyatini ochib berishga intiladi, kishilaming ma’naviy qiyofasi, psixologik holati va boshqa fikrlarni ilgari suradi va tasavvur qiladi.

Rassom biror shaxsni rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o‘ziga o‘xshatishga ishtilish bilan chegaralanmaydi. Rassom shu ishlayotgan tasvir orqali awalo o'zining fikr va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

tuyg'ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Ishlamoqchi boolgan tasvirida avalom bor g‘oyasiga mos mavzu, syujet tanlaydi, voqea kompozitsiyasini quradi, shu yo‘lda izlanadi, dastlab hayotni o‘rganib, naturani kuzatib, eskizlar chizadi, etyudlar yaratadi.

Rassomlik san’atida predmetlaming shakli, hajmi, rangi, ulaming o‘zaro muvozanatini to‘g‘ri ko‘rsatishda rasmni aniq va to‘g‘ri ishlashning juda muhim ahamiyati bor. San’atkor o‘z asarida real borliqda uchraydigan, balki inson fantaziyasi mahsuloti bo‘lgan voqea va predmetlar ham aks ettirilishi, hayotda mavjud bo‘lgan hodisalarning ayrim jihatlari o‘zgartilib,bo‘rttirib ko‘rsatishi ham mumkin.



1-rasm. Ona tuproq uchun kurash olib brogan buyuk vatandoshlarimiz

Bundan ko‘rinib turibdiki, tasviriy san’at asarlari - insondagi ajoyib fazilat - borliqni bilish, uni o‘rganish va sirlarini ochishga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga ta’sir ko‘rsatadi. Tasviriy san’at inson ongiga tezda ta’sir etib, unda ezgu hislar uyg‘otadigan, kishini ruhlantirib, ma’naviy olamini boyitadigan san’at turiaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san’at inson shaxsining shakllanishiga va kamolatiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir. Pedagogika instituti va universitetlarining pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi fakultetlarida ta’lim oluvchi talabalar tasviriy san’atdan maxsus bilim va malakalarga ega bolishi o‘quvchilarni badiiy-ijodiy qobiliyatlarini, badiiy didni, rang sezishni, fazoviy tasavvurini, buyuk rassomlar asarlarini go‘zalliklarini ko‘ra bilishga va ulami hissiy idrok etishga olib keladi. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi bo‘yicha toia bilimlarga ega boiish, ayniqsa, O‘zbekistonda va chet ellarda fanning o‘qitish tarixi, o‘quv fanning maqsad va vazifalari, ta’limning mazmuni, shakllar, usullari haqida chuqur bilimlarga ega bo‘lish tasviriy san’at o‘qituvchi faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, bugungi o‘quvchi kelajakda ishchi, xizmatchi, dizayn konstrktor, muhandis, shifokor, o‘qituvchi, yurist yoki harbiy mutaxassis yoki biron bir sohani yaratuvchisi bo‘ladilar.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Ulami har biri uchun rasm chizish, undan foydalanish lozim bo‘ladi. Hatto uy bezashi ham rasmni ko‘ra olishi, tushunishi, bu zamonning eng zarur faoliyatidir.

Tarix shohidkim, jahonga mashhur geograflar, tarixchi, adabiyotchi, shoir, yozuvchilar, konstruktor va boshqa soha allomalari rasm chizishni juda yaxshi bilganlar. Shunga ko‘ra Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Gyote, Gyugo, Anderson, Pushkin, Tagor, Mikluxo-Maklay, Mendeleev, B.Zokirov kabi turli soha ijodkorlari rasm chizish bilan jiddiy shug‘ullanib kelganlar. Xullas, har bir sohani ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga katta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi.

Agar har bir o‘qituvchi rasm chizishni bilganda edi, ular dars berishda yuksak samaralarga erishardi, dars mashg'ulotlarini o'zlashtirish ham o‘quvchi uchun juda oson va yengil bo’lardi, hatto o‘zlashtirmovchi o‘quvchini boiishi ancha qiyin boiardi. Shularga ko‘ra bugungi maktab o‘quvchilariga badiiy bilim va malaka berishga katta e’tibor berilmoqda. Rasm chizishni o'rganish uchun alohida iqtidor, iste’dod kerakmi?! Agar astoydil istasa, har kim, qobiliyatidan qat’i nazar savodli chizishga o'rgana oladi.

Chizishni o‘rganish, savodli yozish yoki maktab matematika kursini o‘zlashtirishga qaraganda murakkab emas. Faqat intilish va asosiysi - yaxshi iroda, rasm istalgan kasb, istalgan mashg‘ulot egasiga zarurligini tushunish kerak.

Chizishni bilgan san’atning barcha turlarini tushunadi, unga avval odatiy ko‘ringanlarning barchasida go‘zallikni ko‘ra biladi: uning fikrlash doirasi keng, ma’naviy dunyosi boy, u qiziqarli va shodon hayot kechiradi.

Buyuk olim, adib va san’at arboblariga (Lomonosov, Lermontov, Shevchenko, Siolkovskiy, Timiryazev) tasviriy vositalami egallaganliklari muhim kashfiyotlarda, durdona badiiy asarlar yaratishda ko‘maklashgan. San’at barcha kasb egalariga do‘st va hamkor bo'la oladi. Rassomlarning ko‘zi o‘tkirligi, idrok va reaksiya tezligi yaxshi ma’lum:

- rassom N. Jukov bilyardda doim g'olib bolishi bilan faxrlangan;
- ertakchi rassom Viktor Vasnetsov gorodkini yuqori mahorat bilan o'ynashi ko'pchilikni lol qoldirgan;
- manzarachi I.Levitan miltiqdan Vilgelm Telldek otgan - «o‘qni o‘qqa» joylagan;
- XVI asr italyan zargar va haykaltaroshi Benvenuto Chellini artilleriyachi sifatida janglarda qatnashgan. «Mening rasm chizishim va ajoyib mashg‘ulotlarim yozadi u, - va musiqa chalish go‘zalligi, barchasi shu qurollarda «chalishimda» ketdi». Darhaqiqat, ko‘z o‘tkirligi talab etiladigan o‘rinlarda rassomlar oson g‘olib boiishadi. Mikelandjelo aytganidek, san’at ulaming ko‘zlarida sirkul va chizg’ichni bir paytning o‘zida joylashtirishga o'rgatgan.

Rasm chizish nafaqat ko‘rish idroki tezligini, balki yaxshi ko‘rish xotirasini ham shakllantiradi. Razvedkasi logann Vays (Sasha Belov) maxfiy hujjatlaming ko‘plab sahifalarini bir ko‘rishda eslab qolgani ko‘pchilikka ma’lum. Mo‘jizami. Yo‘q mo‘jiza emas, mashq qilishi.

Rassomlar hamisha ko‘rish xotirasi kuchliligi bilan shuhrat qozonib kelgan. I.Levitan o‘rtoqlarini lol qoldirgan. Qish tunida bir guruh rassomlar o‘rmonga sayrga otlanishadi. Ular ertaklardagidek go‘zal manzaraga guvoh bo‘lishadi - moviy, oy shu’lasi yoritib turgan qorda

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

kul rang-pushti jemovlar va ular uzra qorga o‘rangan qarag‘aylar. Hamma manzaradan bahra olib, uy-uyiga tarqaydi. Oradan bir necha kun o‘tib, rassomlardan biri Levitan ustaxonasida kartinani ko'radi: xuddi o'sha tungi manzara - moviy qordagi kul rang-pushti jemovli manzara. Levitan uni, razvedkachi Vays maxfiy hujjatlami eslab qolgani kabi eslab qolgan va xotiradan chizgan.

Rassom Ayvazovskiy shunday ko‘rish xotirasiga ega ediki, dengiz ko‘rinishlarini o‘z ustaxonasiga qamalib olib tasawuri bo‘yicha chizardi. Hikoya qilishlaricha, u Peterburgdagi bir kvartiradan ketayotib, devorda kiyim ilgich ostiga o‘z po‘stinini shunday chizib qo‘yganki, uy egasi ijarachi po‘stinini unutib qoldiribdi, degan xayolga borgan. Faqat yaqinroq kelganidagina, po'stin chizib qo‘yilganini fahmlagan. Shunday qilib, barchaning san’at va go'zallik olamini bilishi ta’limning barcha sohalarida jadal rivojlanishga olib keladi.

Boshlangich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda tasviriy san’at O‘qitish metodikasi asosiy predmetlardan biri hisoblanadi va o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

1.Talabalarga tasvirlash asoslarini o‘rgatish, ya’ni badiiy ijodning psixologik asoslari bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar - qiziqish, diqqat, idrok va sezish, xotira va tasavvumi yaxshi bilishi bolalar badiiy ijodini faollashtirishda foydalanishga o‘rgatish. shu bilan birga mashg‘ulotlarni hayot bilan bog‘lab o‘tishga o‘rgatish.

2.Talabalaming badiiy ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish, ularning badiiy didini tarbiyalash, borliqdagi va san’atdagi go‘zalliklarni ko‘ra bilishga o‘rgatish.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tasviriy san’at darslarini olib borishga tayyoriash.

4. Sharq mumtoz san’ati, hozirgi zamon o‘zbek tasviriy san’ati, sharq xalqlari va xorijiy mamlakatlar san’atlaii haqida qisqacha ma’lumot berish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xapqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Bahodirovna M. Z. IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING AESTHETIC CULTURE OF STUDENTS IN FINE ARTS //Academia Repository. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 300-305.
3. Bakhadirovna M. Z. Methodology for the Development of Students' Comets of Aesthetic Culture and Creativity //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2024. – T. 4. – №. 1. – C. 22-26.
4. Bahodirovna M. Z. TASVIRIY SAN’AT MASHG’ULOTLARIDA O ‘QUVCHILARNING IJODKORLIK KOMETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA TRENINGLARDAN FOYDALANISH //FAN JURNALI TA'LIM VA MADANIYAT. – 2024. – T. 2. – №. 1.
5. Kh K. K. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE PORTRAIT GENRE IN AESTHETIC EDUCATION OF V-VIII CLASS STUDENTS OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2024. – T. 21.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

6. Khasanovich K. K. DRAWING A HUMAN SKULL IN A PEN DRAWING (nose, ears, eyes, lips) //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 11. – С. 121-125.
7. Xolboy X. STAGES OF THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF THE TYPE OF “PAINTING” OF FINE ART //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 102-104.
8. Raxmonqulov X. B., Botirov M. A., Xurramova N. Y. THE ROLE AND THE PRACTICAL IMPORTANCE OF COMPOSUTION DURING COLOUR DESCRIPTION STUDIES (AS AN EXAMPLE OF DESCRINING HUMAN FEATURE) //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1 (80). – С. 241-244.
9. Bobokulovich R. K. INTRODUCTION TO STUDENTS AND ANALYSIS OF VISUAL MEDIA IN FINE ARTS LESSONS //Academia Repository. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 282-287.
10. Bobokulovich R. K. FINE ART AND ITS PLACE IN HUMAN SOCIETY //Academia Repository. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 288-293.
11. Raxmonqulov X. B., Bekkeldiyeva M. F. Q. TASVIRIY SAN’AT VA UNING MOHIYATI, TUR VA JANRLARI //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 540-546.
12. Suvanovich T. O. METHODS OF ORGANIZATION IN FINE ARTS LESSONS BASED ON MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2024. – Т. 21. – С. 106-110.
13. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – С. 3-3.
14. Toshpo’Latov F. U. et al. Bolalarni o ‘yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o ‘yinlar //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 487-491.
15. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies International Engineering Journal For Research & Development.-2021 //Т. – Т. 6. – С. 3-3.
16. Urolovich T. F. et al. USE OF PERSPECTIVE POSITION AND METRIC ISSUES IN PRACTICAL DRAWING IN DESCRIPTION OF NUMBER LESSONS //Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects.-2022.-S. – С. 41-44.
17. Toshpulatov F. U., Norqochkarov R. E. O., Mahmudova K. N. Q. The relationship of folk application art with the science of drawing //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2.
18. Kholbozorovich K. J., Suvonovich T. O. STUDYING THE IMPORTANCE OF DRAWING AS A PRIMARY TOOL //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 14-17.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

19. Tursunbayevna S. S. THE SUBJECT" FUNDS OF COLOR AND COMPOSITION" IS ONE OF THE IMPORTANT THINGS OF FINE ART EDUCATION //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2024. – T. 21. – C. 115-119.
20. Tursunbaevna S. S. METHODOLOGY OF WORKING GYPSUM CUTTING HEAD SAMPLE //International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2024. – T. 11. – №. 01.
21. Kamilova N. D. A. K. K. FEATURES OF TARGETED DESIGN FOR WOMENS CLOTHING //Confrencea. – 2023. – T. 5. – №. 05. – C. 145-148.
22. Qizi R. S. A., Rakhmatullayeva U. S., Temirov D. X. Creation of methods of making national costume decorative elements //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 5. – C. 1324-1331.
23. Toshbekov O. A. et al. Mechanical and Chemical Processing of Wool Fiber TECHNOLOGY //International Journal on Integrated Education. – 2021. – T. 4. – №. 9. – C. 145-146.
24. Toshbekov O. A. et al. Mechanical and Chemical Processing of Wool Fiber TECHNOLOGY //International Journal on Integrated Education. – 2021. – T. 4. – №. 9. – C. 145-146.
25. Karimov O. M. O. TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI ISHLASH JARAYONIDA KOMPOZITSIYANING XUSUSIYATLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – T. 4. – №. 2. – C. 242-248.
26. Karimov O. M. O. TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI ISHLASH JARAYONIDA KOMPOZITSIYANING XUSUSIYATLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – T. 4. – №. 2. – C. 242-248.
27. Abdiqadirovich B. M. APPLIED DECORATIVE ART OF THE INDEPENDENT UZBEKAN PEOPLE //Academia Repository. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 294-299.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Turakulov Anvar Ergashovich**, PhD., Dotsent [**Туракулов Анвар Эргашович,** PhD, доцент], [**Anvar E. Turakulov,** PhD, Associate Professor]; manzil: O'zbekiston, 117036, Surxandaryo, Termiz, Saxovat 18 uy [адрес: Узбекистан, 117036, Сурхандарьинская, Термез, Сахват 18 дом], [address: Uzbekistan, 117036, Surkhandarya, Termez, Sakhovat 18 houses];

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Original paper

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI KREATIVLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

© Sh.Y. Sattarov[1]✉
[1]Termiz davlat universitetuti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ko'plab fanlar qatori tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yunalishi fanlari chizmachilik fani ham jamiyat taraqqiyoti, insonlarning ehtiyojini qondirishga xizmat qiladigan, matematika, qurilish, texnika va boshqa sohalar bilan aloqador bo'lgan zaruriy fanlardan biridir. Matematika aql gimnastikasi bo'lsa, Chizmachilik insonning fazoviy tasavvurini o'stiradigan fan hisoblanadi.

Chizmachilikni o'qitishda ham ham ilg'or pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan o'rinli foydalanish bugungi kunning dolzarb masalasidir.qobiliyatiami o'stirishdan iborat. Chunki chizmachilik talabaning fazoviy tasavvurini o'stirishda, uning mustaqil fikrlash qobilayati va loyihalashga oid ko'nikmani egallashiga katta xizmat qiladi.

MAQSAD: tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi ta'labalarida interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalar asosida o'quvchilarning kreativlik qobilyatlarni takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish. Chizmachilik fanini o'qitishda interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalardan foydalanib dars o'tish uchun metodik tavsiyalar berib, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalrini, kreativlik qobilyatlarni takomillashtirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: agar yuqorida nazarda tutilgan maqsad va vazifalar bajarilsa quydagi natijalarga erishish mumkin.

• muammoning nazariy va amaliyotdagi holatini o'rganish va uning tahlili;

• interfaol o'qitish metodlarini chizmachilik mashg'ulotlariga joriy etishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

• tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabalarida mashg'ulotlarida talabalar grafik savodxonligini shakllantirishda interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishning metodikasini ishlab chiqish;

• joriy etilgan metod va texnologiyalar vositasida mashg'ulotlarda talabalar grafik savodxonligini shakllantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: chizmachilik fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativlik fanlarini ta'minlash masalasiga oid muhokama va dasturlar, o'quvchilarning o'zlarini rivojlantirish, innovatsiyalarni rag' harakat va chizmachilik bo'yicha fikr yuritishlarini belgilashga yo'l qo'ymoqda. Ular o'z fikrlarini ifodalash, maslahatlashish va joriy muammolarga yechimlar orqali o'rganish jarayonlarida ishtirok etish bilan tanishadi. Bu

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

muhokama va sharh ko'rinishda bo'lishi mumkin va o'quvchilarning motivatsiyasi va qiziqtirii oshadi.

XULOSA: o‘quvchilar egallashi kerak bo‘lgan grafik bilim, ko‘nikma va malakalarini hosil qilish va sifat samoradorligini oshirishda boshqa fanlar qatorida «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» yo‘nalishida o‘qitilayotgan «Chizmachilik» fanidan interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalar asosida o‘quvchilarning kreativlik qobilyatlarni takomillashtirish oid metodik ishlanmalar tavsiyalarning o‘rni va ahamiyati yuqori.

Kalit so‘zlar: idrok etish, chizmachilik, kreativlik, did, ko'rish xotirasi, interfaol, fazoviy tasavvur, kuzatuvchanlik, metod, texnologi.

Iqtibos uchun: Sattarov Sh.Y. Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo’nalishi talabalarini kreativlik kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari // Inter education & global study. 2024. № 3(1).B. 48–57.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА И ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКИ

© Ш.Ю. Саттаров[1]✉
[1]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье среди многих предметов изобразительного искусства и инженерной графики предмет рисования является одним из необходимых предметов, которые служат развитию общества, удовлетворяют потребности людей и связаны с математикой, строительством, технологией и другими предметами. поля. Если математика – это умственная гимнастика, то рисование – наука, развивающая пространственное воображение человека.

Правильное использование передовых педагогических технологий и интерактивных методов в обучении рисованию является сегодня актуальной проблемой. Потому что рисование играет большую роль в развитии пространственного воображения школьника, его способности к самостоятельному мышлению и дизайнерских навыков.

ЦЕЛЬ: разработать методику совершенствования творческих способностей учащихся на основе интерактивных методов и технологий обучения в области изобразительного искусства и инженерной графики. Предоставление методических рекомендаций для занятий по использованию интерактивных методов и технологий обучения при обучении рисованию, совершенствованию знаний, умений и навыков учащихся, творческих способностей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: при реализации указанных выше целей и задач можно достичь следующих результатов.

• изучение теоретической и практической ситуации проблемы и ее анализ;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

• определить особенности внедрения интерактивных методов обучения на занятиях рисованием;

• разработка методики использования интерактивных методов обучения при формировании графической грамотности учащихся на занятиях студентов изобразительного искусства и инженерной графики;

• разработка рекомендаций, направленных на формирование графической грамотности учащихся на занятиях посредством внедряемых методов и технологий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: дискуссии и программы по вопросу обеспечения творческих способностей учащихся при обучении рисованию позволяют учащимся развиваться, мотивировать к инновациям и определять, как они думают о рисовании. Они знакомятся с участием в процессах обучения посредством выражения идей, консультаций и решения текущих проблем. Это обсуждение и комментарии могут быть видимыми, а мотивация и интерес учащихся возрастут.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в целях развития графических знаний, навыков и умений, которые должны приобретать студенты, и повышения их качественной эффективности, среди других предметов, существуют методические разработки и рекомендации по совершенствованию творческих способностей учащихся на основе интерактивных методов и технологий обучения по предмету. «Рисование» преподается по направлению «Изобразительное искусство и инженерная графика». Высокое место и значимость.

Ключевые слова: восприятие, рисунок, творчество, вкус, зрительная память, интерактив, пространственное воображение, наблюдение, метод, технолог.

Для цитирования: Саттаров Ш.Ю. Дидактические условия развития творческой компетентности студентов изобразительного искусства и инженерной графики. // Inter education & global study. 2024. № 3(1). С. 48–57.

DIDACTIC CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE OF STUDENTS OF FINE ARTS AND ENGINEERING GRAPHICS

© Shavkat Y. Sattarov[1]✉
[1]Termez State University, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in this article, among many subjects of fine arts and engineering graphics, the subject of drawing is one of the necessary subjects that serve the development of society, satisfy the needs of people and are related to mathematics, construction, technology and other subjects. fields. If mathematics is mental gymnastics, then drawing is a science that develops a person's spatial imagination.

The correct use of advanced pedagogical technologies and interactive methods in teaching drawing is a pressing problem today. Because drawing plays a big role in the

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

development of a student's spatial imagination, his ability for independent thinking and design skills.

AIM: to develop a methodology for improving students' creative abilities based on interactive teaching methods and technologies in the field of fine arts and engineering graphics. Providing methodological recommendations for classes on the use of interactive teaching methods and technologies when teaching drawing, improving students' knowledge, skills, and creative abilities.

MATERIALS AND METHODS: by implementing the above goals and objectives, the following results can be achieved.

• study of the theoretical and practical situation of the problem and its analysis;

• determine the features of introducing interactive teaching methods in drawing classes;

• development of methods for using interactive teaching methods in the formation of graphic literacy of students in the classes of fine arts and engineering graphics students;

• development of recommendations aimed at developing graphic literacy of students in the classroom through introduced methods and technologies.

DISCUSSION AND RESULTS: discussions and programs on fostering student creativity while learning to draw allow students to develop, be motivated to innovate, and shape the way they think about drawing. They are introduced to participation in learning processes through the expression of ideas, consultation and solving current problems. This discussion and comments can be made visible and students' motivation and interest will increase.

CONCLUSION: in order to develop graphic knowledge, skills and abilities that students should acquire, and increase their quality efficiency, among other subjects, there are methodological developments and recommendations for improving the creative abilities of students based on interactive methods and teaching technologies in the subject. "Drawing" is taught in the direction of "Fine Arts and Engineering Graphics". High place and significance.

Key words: perception, drawing, creativity, taste, visual memory, interactive, spatial imagination, observation, method, technologist.

For citation: Shavkat Y. Sattarov, (2024) 'Didactic conditions for the development of creative competence of students of fine arts and engineering graphics', Inter education & global study, (3(1)), pp. 48–57. (In Uzbek).

"Ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi" 6 deb ko'rsatildi. Shundan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimida interaktiv metodlar, ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalar keng qo'llanilib kelinmoqda.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Pedagogik texnologiya - bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘quvchi (talaba)larga o‘qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya.

Modernizatsiya (ing. “modern” – zamonaviy, ilg‘or, yangilangan) –obyektning yangi talablar va me’yorlar, texnik ko‘rsatmalar, sifat ko‘rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi demakdir

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarini ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg‘or yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi. Mazkur yondashuvlarning mohiyati so‘nggi yillarda umumiy tarzda “modernizatsiyalash” tushunchasi yordamida ifodalanib kelinmoqda.

Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar[4]

Modernizatsiya bilan birga innovatsiya tushunchalari ham ishlatiladi. Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.[5]

Innovatsion ta’lim (ingl. “innovation” – yangilik kiritish-ixtiro) – Ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan

-elektron axborot ta’lim resurslarini yaratish;
-o‘qitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini o‘zaro muvofiqlashtiris
-talabalar tomonidan o‘quv va mutaxassislik fanlari asoslarining mustaqi o‘zlashtirishi uchun qulay pedagogik va texnologik shart-sharoitlarni vujudga keltirish.

[4] N.A.Muslimov.M.H.Usmonboyeva. “Innovasion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” moduli bo‘yicha o‘quv-metodik majmua. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi Pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi T., 2016 y,25 b

[5] N.A.Muslimov.M.H.Usmonboyeva. “Innovasion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” moduli bo‘yicha o‘quv-metodik majmua. Nizomiy nomidagi ToshDPU huzuridagi Pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi T., 2016 y,25 b

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta’lim innovatsiyalari – ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Dars mashg‘ulotlari innovatsion texnologiyalar, interaktiv o‘qitish usullaridan, o‘yinli texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda amalga oshirilsa, talabalarda faol va mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy qobiliyati rivojlanadi.

Interaktiv o‘qitish usullarida talabalar o‘quv jarayonining markaziy figurasi bo‘lib, bunda o‘quv jarayoni talabalar extiyojidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. O‘qitish usullarini o‘zaro bog‘lab mashg‘ulot tashkil etilsa talabalar tomonidan uni o‘zlashtirish samarali bo‘ladi.

Ta’limni kichik guruhlar asosida tashkil etish «ta’lim beruvchi- ta’lim oluvchi» dialogidan voz kechishni va “ta’lim beruvchi- guruh- ta’lim oluvchi” ko‘rinishidagi uch tomonlama o‘zaro munosabatga o‘tishni nazarda tutadi. O‘quv guruhi tarkibi buyicha harakatchan kichik guruhlarga bo‘linadi va ularning har-biri o‘zicha o‘quv materialini o‘zlashtiradi. O‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o‘zida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.

Umuman olganda kichik guruhlarda ishlash talabalarni yana ham faolroq bo‘lishga, guruh uchun mas’uliyatni his qilishga o‘rgatadi, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlanishiga yordam beradi. Chizmachilik fanini o‘qitish jarayonida talabalarni ijodiy fikrlashga, o‘zgaruvchan vaziyatlarga o‘rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish, hamda ularning amaliy mashg‘ulotlarda axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan foydalana olishi muhimdir.

Chizmachilik fanini o‘qitish samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li –bu mashg‘ulotlarni innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari hamda interaktiv metodlar yordamida tashkil etishdir. Interaktiv ta’lim (inglizcha- “interact”, rusch- “interaktiv”; “inter” – o‘zaro,“akt” – harakat qilmoq) – talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim.

Interaktiv ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir. Mohiyatiga ko‘ra interfaollik talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish laèqatiga egaliklarini anglatadi.

Bugungi kunda respublika ta’lim muassasalarida interfaol ta’limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalardan foydalanilmoqda[6]

[6] N.A. Muslimov, M.H.Usmonboyeva. “Innovasion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” moduli bo‘yicha o‘quv-metodik majmua. Nizomiy nomidagi ToshDPU huzuridagi Pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi T., 2016 y,25 b

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

1. Interaktiv metodlar: “Keys-stadi”, “Blits-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va boshqalar.

2. Strategiyalar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” va hokazolar.

3. Grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “B-B-B”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klasster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalar.

An’anaviy ta’limdagi bir tomonlamalik oliy ta’lim tizimidagi faqat ma’ruza mashg‘ulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko‘ra, “etkazib beruvchi” rolida endi o‘qituvchi emas, balki talaba (talaba) namoyon bo‘ladi.

Chizmachilik fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kreativlik qobilyatlarini takomillashtirish.

Detallarni biriktirish har xil usullar bilan amalga oshiriladi. Biriktirish usuliga ko‘ra ajraladigan yoki ajralmaydigan birikmalar bo’ladi. Jismlarni bir-biridan ajratishda ular sindirilmasa, buklanmasa, yorilmasa, ya’ni bir-biriga shikast yetmasa, bunday birikma ajratiladigan birikma deyiladi, aks holda ajralmaydigan birikma bo‘ladi. Ajraladigan birikma detallari bir-biriga nisbatan harakatlanadigan yoki harakatlanmaydigan bo’lishi mumkin. Shunga qarab birikma qo’zg’ladigan va qo‘zg‘almas deyiladi.

Hayotda ko‘p uchrab turadigan rezbali /boltli, shpilkali, fitingli/ shponkali va shlitsali birikmalar ajraladigan birikmalar turiga kiradi.

Parchinlash, payvandlash, kavsharlash va yelimlash yo‘li bilan hosil qilingan birikmalar ajralmaydigan birikmalarga kiradi.

Shajarali klaster

O‘yinning maqsadi: O‘quvchilarning o‘rgangan bilmlarini amalda qo‘llay olishlarini sinab ko‘rish va bilim salohiyatini oshirishga yordam beradi.

O‘yinning shatri: Tutashmalarni turlari haqida chuqrroq o‘rganishga yordam beradi. Klasterlash jarayonida o‘quvchining fikriga e‘tiroz berilmaydi.

1. Aqlingizga nima kelsa shuni yozing.
2. Imlo hatolariga e‘tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to‘xtatmang.
4. Agar fikr kelmay qolsa, chizmasini chizib o‘tiring.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan xolda tutashmalar mavzusini o’qitishda interfaol metodlardan foydalanish.

Qani, kim tez chiza oladi

- Detalning yaqqol tasvirlarida tutashmalar chizib ko‘rsatilgan hamda yonida tutashma qoidalariga asosan tutashma turlari ko‘rsatilgan. Bu o‘yin tutashmalarini berilgan vaqt ichida ko‘chirib chizishga mo‘ljallangan.

(Detalning yaqqol tasvir chizilmaydi. U talabalarga nazariyani amaliyotdagi tadbiqi uchun ko‘rsatilgan).

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Maqsad. Talabalarda qo‘lning har xil harakat qilish mahoratini oshirish, ko‘zning chamalash qobiliyatini takomillashtirish, fazoviy fikrlash, tutashmalarni chizish, bilim va ko‘nikmalarini o‘stirish.

- Jihozlash. Har bir o‘yinchiga ytadigan, lekin uncha murakkab bo‘lmagan, detallarning ko‘rinishlari tasvirlangan kartochkalar. Uzoroqdan yaxshi ko‘rinadigan detal ko‘rinishlari va tutashmalar qonun qoidalari tasvirlangan chizma.

Borishi. Talabalarni uch guruga bo‘linadi va tutashma ko‘rinishlari chizilgan kartochkalar tarqatiladi va ularni qisa vaqt ichida chizish topshiriladi.

Talabalar tutashmalarning ko‘chirishga qiynalsa, ularga yordam berish maqsadida tutashmalar qonun qoidalari tasvirlangan chizma ilib qo‘yiladi.

O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini takomillashtirish uchun quyidagi usullar foydali bo'lishi mumkin:

1. Erkinlik berish: O'quvchilarga ularning fikrlarini ifoda qilish, yangi yechimlarni qidirish va o'zlarini boshqarishga erkinlik berilishi kerak. Ular o'zlarining o'ylarini ifodalash, yangiliklarni topish va o'rganishda oz vaqtida ishlashlari uchun ko'rsatilgan erkinliklardan foydalanishlari muhimdir.

2. Mashg'ulotlar va amaliyotlar: Kreativlikni o'rgatishda, amaliy mashg'ulotlar va o'quvchilarni qatnashishga o'zgartirish amaliyotlar juda muhimdir. Bu mashg'ulotlar o'quvchilarning o'zlarini boshqalar bilan baham ko'rish va yangi yechimlarni topishlariga imkon beradi.

3. Boshqaruv va yaratish muhitini: O'quvchilarni yaratish va fikrlashga rag'batlantirish uchun maslahatlar, maqbul muhitlar va yorliqlar taqdim etish kerak. Bunday muhitlar o'quvchilarning kreativliklarini rivojlantirish va ularga ishonch hosil qilishlariga yordam beradi.

4. Kreativlikni qo'llab-quvvatlash: O'quvchilarni ularning fikrlarini qabul qilish, ularni rag'batlantirish va ularni kreativliklarini oshirish uchun qo'llab-quvvatlash muhimdir. Ular o'zlarining yangi yechimlarni mustaqil ravishda qo'llab-quvvatlash uchun o'qutuvchilar tomonidan yorliqlashlari kerak.

5. Murabbiylik va mentorlik: O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda murabbiylik va mentorlikning ro'li juda muhimdir. O'quvchilar o'z fikrlarini o'rganganlarini ifodalash, ularni qo'llab-quvvatlash va ularning kreativliklarini rivojlantirishda ularga yordam berish lozim.

6. Aniq maqsadlar va maqsadlar qo'yish: O'quvchilarga kreativlik bilan bog'liq mashg'ulotlarda aniq maqsadlar va maqsadlar qo'yish juda muhimdir. Ular o'zlarining nima haqida o'ylashlarini, qanday yechimlarni qidirishlarini va qanday natijalarga erishishlarini tushuntiradigan maqsadlar belgilashlari kerak.

O'quvchilarga ularning ishlari to'g'risida ma’lumot berish va ularning fikrlarini qabul qilish juda muhimdir. Bu ularning o'zlarini o'rganganlarini mustaqil ravishda baholashlariga yordam beradi va ularni kreativliklarini rivojlantirish uchun kerakli yo'nalishlarga yo'l qo'ymoqda.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Bu usullar o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini takomillashtirishda yordam beradi va ularning o'zlarini boshqarish, fikrlash va innovatsiyaga rag'batlantirishlariga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xapqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Bahodirovna M. Z. IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING AESTHETIC CULTURE OF STUDENTS IN FINE ARTS //Academia Repository. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 300-305.
3. Bakhadirovna M. Z. Methodology for the Development of Students' Comets of Aesthetic Culture and Creativity //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2024. – T. 4. – №. 1. – C. 22-26.
4. Bahodirovna M. Z. TASVIRIY SAN’AT MASHG’ULOTLARIDA O ‘QUVCHILARNING IJODKORLIK KOMETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA TRENINGLARDAN FOYDALANISH //FAN JURNALI TA'LIM VA MADANIYAT. – 2024. – T. 2. – №. 1.
5. Kh K. K. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE PORTRAIT GENRE IN AESTHETIC EDUCATION OF V-VIII CLASS STUDENTS OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2024. – T. 21.
“2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da esa hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirishning yangi tartibi o‘rnatildi, ya’ni har yili tuman va shahar muammolariga oid taraqqiyot dasturlari ishlab chiqiladigan, hududlarni kompleks rivojlantirish loyihalari aholi o‘rtasida keng muhokama qilinadigan, aholi va yoshlar, xotin-qizlar bandligini ta’minlash, kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha “yo‘l xarita”lari ishlab chiqiladigan bo‘ldi (4). Shuningdek, Prezidentimizning hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirishga oid konseptual g‘oyalari “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”(2021-yil 21-aprel), “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”(2021-yil 21-aprel), “Qoraqolpog‘iston Respublikamizda tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur’atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”(2022-yil 31-avgust) kabi ikki yuzdan ziyod Qaror va Farmonlarida o‘z aksini topgan.

Hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirishga deterministik ta’sir etuvchi siyosiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy, sotsioantropologik, tabiiy-jug‘rofiy, etnologik omillar ko‘p. Ularning har biri ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lishi mumkin. Bu ijtimoiy taraqqiyotning ham, madaniyatning ham universal voqelik ekani bilan bog‘liqdir.

Hudud avvalo tabiiy-jug‘rofiy makondir. Uning ijtimoiy -madaniy rivojlanishini yer osti boyliklari, suv, havo, ekologik muhit, iqlim, tog‘ yonbag‘irlari, qir, dala imkoniyatlaridan foydalanishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu o‘rinda tabiiy-jug‘rofiy omilning yetakchi o‘rinda turishini sezamiz. Hatto etnologlarning fikricha, inson xarakteri, faoliyati va turmush tarzi, mimikasi ham u yashayotgan tabiiy-jug‘rofiy omilning ta’sirini ifoda etadi (5, S.232-237). Shunday ekan, hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish avvalo tabiiy-jug‘rofiy omillarning deterministik ta’siri orqali tahlil qilinishi darkor.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Ijtimoiy-madaniy rivojlanish antropologik omillar, ya'ni inson va uning ma'naviy, keng ma'nodagi ekzistensial ehtiyojlari bilan bog'liqdir. "Ekzistensial ehtiyoj" tushunchasini ilmiy iste'molga taniqli psixolog A. Maslou kiritgan. Uning fikricha, inson faoliyatida va say-harakatlarida tug'ma yoki ikkilamchi ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Tug'ma ehtiyojlarga kishilarning ko'payish, nafas olish, ovqatlanish, jismoniy harakat, fiziologik zaruriyati kabilar kiradi. Tur sifatida ko'payishiga, jinsiy istaklarini qondirishga, ovqatlanishga bo'lgan tug'ma ehtiyojlari insonning ijtimoiy shaxs, madaniy boyliklar yaratuvchi subyekt sifatida yashashiga katta ta'sir etadi (6,S.38-43). Hatto Z. Freyd, K. Yung, G. Markuze, S. Dali kabi ijodkorlar ushbu tug'ma ehtiyojni birinchi o'ringa qo'yishadi. Bizning fikrimizcha, tabiiy ehtiyoj, instinkt inson hayotiga, istaklari va harakatlariga qanchalik kuchli ta'sir etmasin, ular insonning ekzistensial, ya'ni tashqari muhit, ijtimoiy hayot va madaniy boyliklar yaratish ehtiyojlarining deterministik ta'sirini inkor qilolmaydi.

A.Maslou fikricha, tashqi ta'sirlar tufayli shakllanadigan ekzistensional ehtiyojlar kishining yashayotgan muhiti, oilasi, etnoan'analari, aksiologik tasavvurlari, madaniy boylik yaratishga intilishlari kabilarni o'z ichiga oladi. Aynan ekzistensial ehtiyojlar shaxsni ijtimoiy-madaniy makon va madaniy boyliklar bilan bog'lab turadi, undagi yovvoyi instinktlarni xaosni, boshboshdoqlik va destruktivlikni keltirib chiqarishiga yo'l qo'ymaydi. Bu o'rinda hududni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish bilan shaxsning ekzistensial ehtiyoji dialektik uyg'un kelishi lozimligini anglaymiz.

Hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlanishi, ayniqsa inson qadr-qimmatiga, huquq va erkinliklarini ta'minlashga e'tibor oshgan hozirgi paytda, inson omiliga, insondagi ma'naviy potensialdan foydalanishga bevosita bog'liqdir. Hatto aytishimiz zarurki, hududni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish shu hududda yashovchi shaxsning, insonning ma'naviy-madaniy, kreativ faolligiga bog'liqdir. Hudud ijtimoiy-jug'rofiy makon sifatida keng, ayrim olgan shaxs uning qismidir. Ammo hududning butunligi shaxsning qismligiga tajovvuz qilmaydi, butun (hudud) va qism (shaxs) uyg'un kelganidagina ijtimoiy taraqqiyot ta'minlanadi. Hududlarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi keng ma'nodagi ijtimoiy taraqqiyot kafolatidir.

Hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirishda davlat va uning dasturlari muhim ahamiyatga ega. Davlat qabul qiladigan umum milliy xarakterga ega dasturlar va huquqiy-normativ hujjatlar hududlarni umum milliy taraqqiyotga bog'laydi, hududni qishloq, mahalla va fuqaro ekzistensial ehtiyojlari bilan uyg'unlashtiradi. Agar O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish va O'zbekistonni innovatsion rivojlantirish konsepsiyalariga nazar tashlasak, ularda umummilliy xarakterga ega strategik vazifalar ustun turishini ko'ramiz. Ularda hududlarni rivojlantirishdan ko'ra umummilliy, umumdavlat ahamiyatiga ega vazifalar belgilab berilgan. Ammo bu xususiyat, vazifalar hududlarning rivojlanishiga zid emas. Masalan, milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasida xalq amaliy san'ati, baxshichilik kabi ijod turlarini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar ko'rsatilgan (7). Umummilliy xarakterga ega ushbu ijod turlari hududlarga nafaqat turli shakliy ko'rinishlarda shuningdek, turli miqyosda, darajada keladi. Farg'ona vodiysida keng rivojlangan yog'och o'ymakorligi Qoraqolpog'iston yoki Surxondaryo- Qashqadaryo vohasida keng tarqalgan etnohududiy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

an’ana sifatida uchramaydi. Ulardagi xalq og‘zaki ijodiga, ayniqsa baxshichilikka boshqa hududlardagi ijodkorlar havas qiladi. Bunday rang-baranglik etnomadaniyatlarga xos xususiyatdir. Hududlarni ijtimoiy -madaniy rivojlantirish avvalo ushbu rang-baranglikka tayanadi.

Hududlarning turli ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllangan lokal jihatlari bor. Hududiy lokallik bilan umummilliylik o‘rtasida ma’lum bir farqlar mavjud. Bu til, lahja, turmush tarzi, fikrlash, qadriyatlarda ko‘zga tashlanadi. Bu ham aslida etnomadaniyatdagi rang-baranglikdir. Hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish lokal belgilarni mutloqlashtirishi mumkin emas, ammo lokal xususiyatlarini qo‘llab-quvvatlash etnomadaniyatlar o‘rtasidagi plyuralistik, ko‘p funksional aloqalarni saqlab qolish uchun zarur.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev hududlarga xizmat safarlari uyushtirishni o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishiga aylantirgan. U har safarida hududlarni kompleks rivojlantirishga e’tibor qaratadi, mahalliy resurslardan keng, faol foydalanishga chorlaydi. Birgina 2022-2023-yilda Prezidentimiz hududlarga 60 ga yaqin xizmat safarlari uyushtirgan. Ularning har birida aholini,, ayniqsa yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish, hudud muammolarini yechishda faol qatnashishi masalasi ustida to‘xtaladi. Bu bejiz emas.

Real voqelik ko‘rsatadiki, yoshlarni ish, kasb, ilm olish, hudud muammolarini hal etishga jalb etmaslik ijtimoiy-madaniy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, layoqatli, ishchan va talabchan yoshlarning chet ellarga chiqib ketishiga sabab bo‘ladi. Masalan, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida respublikamizdan 14 666 nafar kishi chet ellarga ko‘chib ketgan. Bu ko‘rsatkich 2022-yildagidan 5 barobar ko‘pdir (8).

Hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirishda davlat va uning dasturlari muhim ahamiyatga ega. Davlatning ijtimoiy -siyosiy funksiyalari va imkoniyatlari unga keng islohotlar o‘tkazish, hududlar infratuzilmasini shakllantirish, kadrlar tayyorlash va madaniyat muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash imkonini beradi. Umummilliy xarakterga ega dasturlarni ishlab chiqish va undagi vazifalarni real voqelikka aylantirishni faqat davlat uddasidan chiqishi mumkin. Bu nodavlat tashkilotlari, ayniqsa tadbirkorlik subyektlari, siyosiy, badiiy-ijodiy, ma’rifiy uyushmalar, o‘zini o‘zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-madaniy hayotdagi rolini kamaytirmaydi. Mazkur omillar hududlar ijtimoiy-madaniy hayotini zavqli, qiziqarli, mahalliy aholi ehtiyojlariga muvofiq qiladi. Demak, hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish davlat institutining qo‘llab -quvvatlashini joylardagi ijodiy, intellektual va ma’rifiy-ma’naviy kuchlar tashabbusi bilan to‘ldirishni taqozo etadi. Hududlarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi ana shu ikki subyekt, ya’ni davlat va hudud hamkorligining mahsuli bo‘lishi mumkin. Bu o‘rinda, yuqoridagi fikr-mulohazalarimizga xulosa sifatida quyidagilarni tavsiya etishimiz mumkin: birinchisi, har bir hududni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish konsepsiyasini va davlat dasturini ishlab chiqish zarur. Buning uchun avvalo hududlarni belgilab olish talab qilinadi. Ular Qaroqolpog‘iston hududi, Xorazm hududi, Navoiy-Buxoro- Samarqand hududi, Surxondaryo-Qashqadaryo hududi, Farg‘ona -Andijon-Namangan hududi, Jizzax-Sirdaryo hududi, Toshkent hududi bo‘lishi mumkin. Yoki ayrim olingan viloyat bir hudud sifatida olinishi mumkin;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

ikkinchisi, har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari, tabiiy va mehnat resurslari hamda infratuzilmalari xaritasi yaratilishi lozim; uchinchisi, hududning aholi qatlami, uning ma'naviy qiziqishlari, mobillik darajasi, madaniyat va san'atga munosabatlari, ayniqsa etnomadaniy tajribalari o'rganilishi kerak. Buni joylardagi ilmiy, intellektual kuchlardan sotsiologik guruhlar tashkil etish orqali hal etish mumkin; to'rtinchisi, hududlarning ijtimoiy-madaniy imkoniyatlari (madaniyat va san'at muassasalari soni, joylashishi, moddiy-texnik bazasi, kadrlar bilan ta'minlangani, ta'lim-tarbiya va sport muassasalari, ochiq dam olish zonalari, suv havzalari va boshqalar) aniqlanishi darkor. Bu vazifa joylardagi madaniyat, sport va ta'lim-tarbiya muassasalari vakillaridan tuziladigan jamoatchilik kengashi yordami bilan hal etiladi; beshinchisi, har bir hududni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish nafaqat etnolokal xususiyatlariga, shuningdek, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga ham tayanishi shart. Joylardagi intellektual va ijtimoiy-madaniy kuchlarning tashabbuslari, faolligi ushbu paradigmaga yo'naltirilishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullayev M. Madaniyatshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. – Farg'ona: FDU, 1994.
2. Boboyev H., Hamroyev T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. O'quv qo'llanma.-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
3. Norqulov S. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ongda transformatsiya jarayonlari. -Toshkent: Navro'z, 2015.
4. O'zbekiston Respublikami Prezidentining Farmoni. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"// "Yangi O'zbekiston", 2022,1-fevral.
5. Nalchadjyan A. EtnopsixologiY. -Sankt-Peterburg: Piter, 2002.
6. Maslou A. Dalniye predeli chelovecheskoy psixiki. -SPb.: Yevraziya, 1997.
7. O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent: RMMIMM, 2019.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdullayeva Xafiza Olimxo'jayevna**, katta o'qituvchi [**Абдуллаева Хафиза Олимходжаевна**, старший преподаватель], [**Khafiza O. Abdullayeva**, senior teacher]; manzil: O'zbekiston, 200100, Toshkent, Yunusobod tumani Oqtepa mahallasi Sohibkor ko'chasi 1uy 31 xona; [адрес: Узбекистан, 200100, Ташкент, Юнусабадский район, микрорайон Октепа, улица Сохибкор, 1 дом, 31 квартира]; [address: Uzbekistan, 200100, Tashkent city, Yunusabad district, Oktepa neighborhood, Sohibkor street, 1 house, 31 apartments.]; ORCID: https://orcid.org/0000-000-7250-4588; hafiza0550@mail.ru

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Original paper

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARIGA INGLIZ TILI O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

© Sh.D. Asiljonova[1]✉

[1]Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar tahlili, olib borilgan tadqiqotlar yo`nalishlari, maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari, maktabgacha ta'limda ingliz tilini o'qitish uchun zarur bo'lgan metodlardan o`yin metodi, shuningdek, maktabgacha ta`limda ingliz tili o`qitishda qaysi o`yinlardan foydalanish haqidagi fikrlar yoritilgan. Bulardan tashqari, ushbu maqolada maktabga tayyorlov guruhlarida qo`llash mumkin bo`lgan ba`zi o`yinlar yoritib berilgan.

MAQSAD: maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilariga ingliz tili o‘qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni haqida nazariy ma`lumotlar berish.

MATERIALLAR VA METODLAR: maktabgacha ta`lim muassasalarida ingliz tili o`qitishda maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari bilan ishlash, ingliz tili mashg`ulotlarida e`tibor berish lozim bo`lgan jihatlar, mashg`ulotlarda ta`lim jarayonini tashkl etishda o`yin texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, o`yinlardan namunalar keltirib o`tilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tilini o`rgatish muhim ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu yo`nalishda bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo`lib, ushbu ilmiy ishlardan namunalar maqolada yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu maqola mavzusi yuzasidan ingliz tili yo`nalishi talabalari uchun Xorijiy tillarni ta`limiy o`yinlar orqali o`rgatish metodikasi fanidan, “Methodology of teaching foreign languages with educational games” darsligi chop etilgan. Ushbu darslikda yosh hususiyatlaridan kelib chiqqan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili o`qitish metodlari yoritilgan hamda bir qancha o`yinlar foydalanish uchun taqdim etilgan.

XULOSA: o`yin texnologiyalari maktabgacha ta'lim muassasalarida samarali usul hisoblanadi. Bolalarning ushbu yoshdagi psixologik, fiziologik hamda emotsional jihatlarini hisobga oladigan bo`lsak, ushbu davrda asosiy faoliyat turi o`yin faoliyatidir, mashg`ulotlarda foydalaniladigan o`yin turlari bolaning yoshi, qiziqishlari va albatta, ta'lim dasturlari asosida tanlanadi. Bolalar uchun eng foydali o`yinlar - ta'limiy o'yinlar, rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

o‘rgatishda o‘yinlardan unumli foydalanish ularning kelgusida ingliz tilida samarali faoliyat olib borishini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta'lim tashkilotlari, yosh xususiyatlari, tilni o'zlashtirish, didaktik o'yinlar, ta`limiy o'yinlar, rolli o'yinlar.

Iqtibos uchun: Asiljonova Sh.D. Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilariga ingliz tili o‘qitishning zamonaviy usullari // Inter education & global study. 2024. № 3(1). B. 78–88.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ПЕДАГОТОВ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ К ШКОЛЬНОЙ ГРУППЕ

© Ш.Д. Асилжонова[1]✉
[1] Институт переподготовки и повышения квалификации руководителей и специалистов дошкольных образовательных учреждений, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье проведен анализ научных исследований, проводимых в области дошкольного образования сегодня, направления проводимых исследований, возрастные особенности дошкольников, методы, необходимые для обучения английскому языку в дошкольном образовании, игровой метод, а также освещены мнения о том, какие игры использовать при обучении английскому языку в дошкольном образовании. Кроме того, в данной статье освещены некоторые игры, которые можно использовать в подготовительных группах к школе.

ЦЕЛЬ: предоставить учащимся подготовительной группы к школе теоретическую информацию о содержании совершенствования методики преподавания английского языка.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: работа с учащимися подготовительной группы к обучению английскому языку в дошкольных образовательных учреждениях, аспекты, на которые следует обратить внимание на занятиях по английскому языку, использование игровых технологий в организации учебного процесса на занятиях, а также примеры из игр.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: сегодня обучение иностранному языку детей дошкольного возраста является одним из важнейших вопросов. В этом направлении проведен ряд научных исследований, примеры этих научных работ приведены в статье. Также по теме данной статьи издан учебник «Методика преподавания иностранных языков с помощью развивающих игр» для студентов специальности «Английский язык». В этом учебнике с учетом возрастных особенностей выделены методы обучения английскому языку детей дошкольного возраста и представлен к использованию ряд игр.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: игровые технологии являются эффективным методом в дошкольных образовательных учреждениях. Если принять во внимание психологические, физиологические и эмоциональные аспекты жизни детей в этом

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

возрасте, то основным видом деятельности в этот период является игровая деятельность, виды игр, используемые в обучении, подбираются исходя из возраста ребенка, интересов и, конечно же, образовательные программы. Наиболее полезными для детей являются развивающие игры, ролевые игры, дидактические игры. Эффективное использование игр при обучении английскому языку детей дошкольного возраста гарантирует, что они смогут эффективно использовать английский язык в будущем.

Ключевые слова: дошкольные образовательные организации, возрастная характеристика, языковое освоение, дидактические игры, развивающие игры, ролевые игры.

Для цитирования: Асилжонова Ш.Д. Современные методы обучения английскому языку педаготов подготовительной к школьной группе. // Inter education & global study. 2024. № 3(1). С. 78–88.

MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE TO EDUCATORS OF THE SCHOOL PREPARATORY GROUP

© Shohsanam D. Asiljonova[1]✉
[1]Institute of Retraining and Advanced Training of Managers and Specialists of Preschool Education Institutions, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in this article, the analysis of the scientific research conducted in the field of preschool education today, the directions of the conducted research, the age characteristics of preschool children, the methods necessary for teaching English in preschool education, the game method, as well as opinions about which games to use in English language teaching in preschool education are highlighted. In addition, this article highlights some games that can be used in preparatory groups for school.

AIM: to provide students of the preparatory group for school with theoretical information about the content of improving the English language teaching methodology.

Materials and methods: working with the students of the preparatory group for teaching English in preschool educational institutions, aspects that should be paid attention to in English classes, using game technologies in organizing the educational process in classes, as well as examples from games.

DISCUSSION AND RESULTS: today, teaching foreign language to preschool children is one of the most important issues. A number of scientific research works have been carried out in this direction, and examples of these scientific works are highlighted in the article. Also, on the topic of this article, the textbook "Methodology of teaching foreign languages with educational games" has been published for students of the English language major. In this textbook, based on age characteristics, the methods of teaching English to preschool children are highlighted and a number of games are presented for use.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

CONCLUSION: game technologies are an effective method in preschool educational institutions. If we take into account the psychological, physiological and emotional aspects of children at this age, the main type of activity in this period is game activity, the types of games used in training are selected based on the child's age, interests and, of course, educational programs. The most useful games for children are educational games, role-playing games, didactic games. Effective use of games in teaching English to preschool children ensures that they will be able to use English effectively in the future.In this article, the age characteristics of preschool children, the analysis of scientific researches conducted in the field of preschool education today, the methods necessary for teaching English in preschool education are highlighted.

Key words: preschool education organizations, Age characteristic, language acquisitions, didactic games, educational games, role-playing games.

For citation: Shohsanam D. Asiljonova. (2024) 'Modern methods of teaching english language to educators of the school preparatory group', Inter education & global study, (3(1)), pp. 78–88. (In Uzbek).

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ 595-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son qarorlari ijrosini ta`minlash yuzasidan yurtimizda maktabgacha ta`lim sohasini rivojlantirish yuzasidan bir qator ishlar olib borilyapti.

Xususan, dunyoda jadal rivojlanayotgan integratsiya jarayonlari chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojning ortishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim sohasida ham bu jarayon jadal rivojlanib, maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tili darslari muntazam olib borilmoqda. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ingliz tili darslari olib borilmoqda. Albatta, bu borada ko'plab ilmiy ishlar tayyorlanib, maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi takomillashtirilmoqda.

O`rganilayotgan xorijiy tilni yaxshi bilishga olib keladigan muhim omillardan biri yangi til o'rganishni erta boshlashdir va bu keyinchalik maktabda o'qitiladigan xorijiy til bo'lishi shart emas. Xorijiy tilni erta yoshlardan o`rganish, bir tomondan, insonning fonologik qobiliyatini, boshqa tomondan, kommunikativ qobiliyatini sezilarli darajada kengaytiradi. faqat ona tilida

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

uzoq vaqt muloqot qilgan kishi xorijiy tilda qanday muloqot qilishni tushunmaydi, muloqotning ba'zi universal jihatlarini yetarli darajada umumlashtira olmaydi: bunday kishi uchun uchun gapirish faqat o'z ona tilida gapirishni anglatadi.

Chet tilini ma`lum bir davrda yetarlicha yaxshi bilmasligining sababi uni o'rganishning kech boshlanishidir, chunki ilgari chet tili odatda maktabning 5-sinfidan boshlab o'rgatilgan.

Bugungi kunga kelib ko`pgina olimlarning fikriga ko'ra, xorijiy til o`rgatish ta'limining erta boshlanishi xorijiy tilni o`zining ona tili kabi bilishni ta'minlaydi.

Bolalikda o'rganilgan chet tili bolaning til o`rganish qobiliyatini ochib beradi: bola ongida o`zining ona tili va xorijiy til faktlari taqqoslanadi, shunga ko'ra tarbiyalanuvchining tafakkuri ko`p qirrali bo`lib shakllanadi. Bolalar tomonidan o`rganilayotgan tillarning farqlari, tillarning birida kuzatilmaydigan hodisa boshqasida mavjudligi, ularning o`rtasidagi o`xshashlik va tafovvutlar o`zlashtiriladi. Shuningdek boshqa yangi til o`rganish jarayonida shu mamlakatning turmush va tafakkur madaniyati bilan tanishish orqali bag‘rikenglikni o`rganiladi.

Ikki tilda muloqot qilish, o`rganilayotgan tillarda ham savollarga javob berish, suxbatdosh bilan turli mavzularda dialoglar olib borish, kerakli vaqtda kerakli so`zlarni topib ayta olish, lug`at manbaasiga ega bo`lish va bu so`zlarni qo`llash ko`nikmalarini hosil qiladi. Bu konvertatsiya qobiliyatlari rivojlanishiga sabab bo`lib, yuqoridagi xorijiy tilni erta o`rganish bola ongini rivojlantiradi degan fikrni asoslaydi.

Xorijiy tilni o'zlashtirish kommunikativ o'yin bo'lib, unda muloqotning eng muhim va qiyin elementlari mashq qilinadi. Xorijiy tilni erta o'rganish bolani yangi sharoitlarda muloqotga kirishishdan qo'rqmaydigan, muloqotining yangi qoidalarini qabul qilishga tayyor va boshqa tilda gapiradigan odamlarga baynalminallik tamoyili asosida munosabatda bo`ladigan qilib tarbiyalashga imkon beradi. Ona tili bilan birgalikda xorijiy tilni o`rganishga zamin yaratadigan oilada o`sgan bolalarda til o`rganishga ishtiyoq va imkonyatlar baland bo`ladi. Til borasida kognitiv rivojlanish yuqorilaydi. Xorijiy tilni bilish - boshqa madaniyatni bilishni ifodalaydi.

Bolalarga ikkinchi tilni o`rgatishni erta boshlamaslik, ularda yuqorida sanab o`tilgan ko`nikmalarni rivojlanishida oqsashlik yuzaga kelishiga sabab bo`ladi. Har qanday tilda o'z fikrlarini ifoda eta olmaslik - bolani muloqot sifatiga, bayonotlar mazmuniga, lug'at va grammatikani rivojlantirishga mas'ul bo'lgan kattalarning yetarlicha e'tibor bermasligi natijasi bo`lishi mumkin. Til rivojlanishidagi eng muhim davr - bu maktabgacha yoshdagi bolalik davridir. Ushbu sohadagi bo'shliqlar insonning butun keyingi hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli mavjud. Maktabgacha yoshdagi va kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilarning rivojlanishi ularning maktab ko'nikmalarini rivojlantirish tezligi bilan emas, balki u qayta foydalana oladigan hayotiy materialning mavjudligi, ya'ni turli xil tajribalar, hislar, sinovlar, qiyinchiliklarni yenga olishi bilan o'lchanadi. Shuningdek, jismoniy, intellektual, badiiy va hunarmandchilik faoliyatining turli usullarida o'zini sinab ko'rishga harakat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, agar bolaning kamida bitta tilda intellektual va lingvistik rivojlanishi yetarlicha yuqori bo'lsa (ikkinchi tilda mavjud, ba`zida kamroq bo`lishi mumkin), u holda umumiy til

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

qobiliyatlari darajasi kerakli darajada yuqori saqlanadi; agar har o`zining ona tilida aniq muammolar va kamchiliklar mavjud bo'lsa, keyingi tilni o'rta darajada o'rganish mumkin.

Nutqni rivojlantirishning muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi qiziqarli omil bu ma`lum bir tilda (birinchi ona tilida) yaxshi rivojlangan nutqning bir nechta variantlarining kombinatsiyasilashuvidir. Masalan, ma`lum bir bolaning buvisi bir shevada gapirsa, bobo boshqa shevada gaplashsa, bolaning ota-onasi esa adabiy tilda gapirib, tilning boshqa shevalarini muloqot jarayoniga aralashtirmasa ,ta`til vaqtlarida bola buvi va bobosi shevada gapiradigan qishloqda bo'lib, o`qish vaqtlarida adabiy muhit nutqda hukmronlik qiladigan shaharda yashasa, ushbu holatda bolada muloqotning turli variantlari orasidagi farqlarni solishtira olishi tufayli lingvistik instinkt va turli til hodisalarini taqqoslash qobiliyati paydo bo'ladi.

Shu o`rinda bir savol tug`iladi. Bolaga ikkinchi tilni qachon o`rgatish maqsadga muvofiq bo`ladi? Rasmiy ravishda, turli mamlakatlarda maktab ta'limida ikkinchi til turli yoshda kiritiladi. Masalan, Evropada eng qadimgi odamlar ikkinchi tilni Lyuksemburgda va Norvegiyada 6 yoshdan boshlab o'rganishni boshlaydilar. Finlyandiya va Shvetsiyada maktab turiga qarab 7-9 va 7-10 yoshlardan, Belgiyada esa 8-12 yoshdan boshlab ikkinchi til o`rgatishga kirishilgan. Xorijiy tillar Italiya, Avstriya, Lixtenshteyn va Ispaniya maktablarida 8 yoshdan, Gretsiyada 9 yoshdan, Daniya, Germaniya, Gollandiya, Portugaliyada 10 yoshdan boshlab joriy etiladi. Fransiya, Buyuk Britaniya va Islandiyada esa bu 11 yoshdan boshlab joriy etilgan.

Ikkinchi tilni o'zlashtirishning muhim davri 8-11 yosh deb hisoblanadi, ushbu yoshlardan keyin chet tilining fonetik tizimini yaxshi o'zlashtirish ehtimoli kamayadi, shuningdek chet el madaniyatini idrok etishda tezkorlik pasayadi. Tadqiqotlarda berigan ma`lumotlar asosida aytish mumkinki, 15 yoshgacha ikkinchi tilni yaxshi darajada o'zlashtirish mumkin. Agar inson balog'at yoshi davrida boshqa til muhitida yashasa, u ham ma'lum darajada boshqalar bilan muloqotda o'z-o'zidan ikkinchi tilni oson va yengil o'zlashtiradi. Biroq bu jarayonda u tilning asosiy jarayonlari, grammatikasi, tuzilishi kabilarga katta e`tibor qaratadi.

So‘nggi yillarda maktabgacha ta`lim tashkilotlarida chet tilini o‘rgatish juda ommalashgan bo‘lib, bunday bolalar bog`chalari soni kundan kuni ko‘payib bormoqda. Ushbu o`rinda aytib o`tishimiz joizki ikkinchi til-xorijiy tilni maktabgacha ta`lim tashkilotlarining o`quv rejasiga kiritish O`zbekistonda ham keng joriy etilgan va bugungi kunda mamlakatimizdagi barcha maktabgacha ta`lim muassasalarida ikkinchi til- xorijiy til o`rgatilmoqda.

Aynan ushbu jarayonlar blalar va kattalarning ikkinchi tilni o`zlashtirishida mavjud bo`lgan tafovvutlar yuzaga keladi. Bunda kattalar til o`zlashtirishda qobiliyatsizligidan hijolat tortishi, avvaldan bor bo`lgan bilimlar tizimi va yangi o`rganilayotgan bilimlar o`rtasidagi nomutanosibliklar sababli tilda erkin gaplashish muammolari tug`ilsa, yosh davrlarda bunday muammolar kam uchraysi, buning sababi sifatida xato va kamchiliklarga e`tibor bermaslik, ikkinchi tilni qiziqish yoki rag`bat sifatida o`rganilishidir.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Odatda, ikkinchi tilni o'rgangan kattalar tegishli idiomalarda emas (bu tilni bilishning yuqori darajasining ko'rsatkichi), balki muzlatilgan formulalarda gapiradi. Garchi kattalar yangi o`rganilayotgan tilni tezroq va kengroq o'zlashtirib, tilni o`rganish jarayonini tartibga sola olsalar ham, ular kamdan-kam hollarda tilni tabiiy darajada o`zlashtira oladilar. Bundan tashqari, kattalardagi tilni o'zlashtirish tezligi asta-sekin sekinlashadi, bolalarda esa bu jarayon oshib boradi.

Ikkinchi tilning o'zlashtirilishining barcha bosqichlarida uning xususiyatlari kattalar va bolalarda o'xshashdir (agrammatiklik, morfemalar va so'zlarni ulash usullari, talaffuz xatolari va texnikasi). Bolalar kattalarnikiga qaraganda tezroq o'rgangan ma`lumotlarini unutishadi, biroq erta o'rganishgan bilimlar to`liq tarzda unitilmasligiga oid dalillar mavjuddir. iz qoldirmasdan yo'qolmasligi haqida dalillar mavjud.

Sh.B.Raximova o`z tadqiqotlarida maktabgacha ta`lim yo`nalishi talabalarining ingliz tilini o`zlashtirish sifatini boshqarish masalalarini yoritgan holda, maktabgacha yo`nalish talabalariga ingliz tilini o`qitishda talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish, shuningdek, maktabgacha ta`lim yo`nalishlari bitiruvchilariga qo`shimcha kvalifikatsiya berishga qaratilgan variativ o`quv me`yoriy hujjatlar loyixalari ishlab chiqilgan. Ushbu ilmiy ishda ko`zda tutilgan g`oyalardan biri shundan iborat ediki, Sh. Raximova tomonidan maktabgacha ta`lim yo`nalishida tahsil olayotgan talabalarga ikkinchi kvalifikatsiya sifatida maktabgacha ta`limda ingliz tili o`qituvchisi mutaxasisligini berishning variativ dasturi ishlab chiqish taklifi berilgan [3].

G.Sh. Tajibayev tomonidan yozilgan “Boshlang`ich sinf o`quvchilariga chet til o`qitishda kommunikativ yondashuv” nomli dissertatsiyada boshlang`ich sinflarda olib boriladigan xorijiy tillar (ingliz tili) ni o`rganish va o`rgatish ilmiy (didaktik, pedagogik, metodologik hamda psixolingvistik) asoslari takomillashtirilgan. Shuningdek, ushbu ilmiy ishda tillararo interferensiyaning oldini olishga mo`ljallangan mashq va til materialini o`zlashtirishga ko`maklashish modeli asosida kommunikatsiya va interaksiya usullari, ingliz tilini A1 darajada kommunikativ yondashuv asosida o`qitish metodikasi lingvistikaning “mutanosiblik” va “tillararo” nazariyalari hamda psixologiyaning “ kognitiv konstruktivizm” va “ijtimoiy konstruktivizm” nazariyalari takomillashtirilgan, ingliz-o`zbek tillarida nutq rivojlanishi filo va ontogenez bo`yicha o`xshash xuxusiyatlari aniqlashtirilgan[4].

B.X. Isaqulova didaktik o`yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o`rgatish metodikasini takomillashtirish bo`yicha o`z nazariyalarini ilgari surgan, uning fikriga ko`ra so`nggi paytlarda maktabgacha ta`limda o`yin 6-7 yoshli bolalar uchun tabiiy o`rganish shakli bo`lib, bolalar hayotiy tajribasining bir qismi hisoblanadi. Muallif o`yinlar o`ynash orqali bilim berganda tarbiyachi bolalarning kelajakdagi manfaatlarini hisobga olgan holda, hozirgi kundagilarni qondiradi deb hisoblaydi. Ushbu ilmiy ishda muallif tomonidan maktabgacha ta`lim tashkilotlarida ingliz tili mashg`ulotlarida foydalaniladigan didaktik o`yinlar klassifikatsiyasining mualliflik tasnifi, fonetik, leksik va grammatik o`yinlarga lingvistik jihatdan yo`naltirish va idientiv uyg`unlashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o`rgatishning

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

pedagogik shart – sharoitlari didaktik o`yinni o`tkazish metodikasi orqali samaradorlikni ta`minlashga asoslangan ingliz tili dasturiga ustuvorlik berish va tayyorgarlik, o`yinni o`tkazish hamda o`yin natijalarini nazorat qilish bosqichlarini uyg`unlashtirish asosida takomillashtirilgan [5].

Akbarova Shahnoza Hikmatullayevnaning “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o`rgatish metodikasi” nomli ilmiy ishi o`rganilganda maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o`rgatishda bir qancha yangi metodlar yoritilganligini kuzattish. Ushbu ishda muallif tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tilini oson o`zlashtirishida imprinting, senzitiv, motivatsion va immitatsion xususiyatlari psixolingvistik yondashuv bo`yicha isbotlanganligini, umumiy muhim kompetensiyalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tili leksik zaxirasiga tayangan holda, mavzuviylik, vizuallik va ko`p ishlatilishi bo`yicha tanlangan ingliz tili faol leksik minimum taklif etilgan, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili faol va nofaol leksikasini o`rgatishning metodik ta`minoti she`r, qo`shiq va ertaklar vositasida hamda harakatli, didaktik,rolli, imitatsion o`yin texnologiyasi integratsiyasi asosida takomillashtirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlarining fikr-mulohazalari o‘rganilganda, ularda maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha juda ko`p yangi uslub va ko‘rsatmalar mavjudligiga guvoh bo‘lindi. O.V Koryakovtseva maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o`rgatish metodikasi ustida tadqiqot olib boradi. U o`z ishlarida erta yoshlarda bolalarga xorijiy tilni o`rgatishning psixo-pedagogik va lingvo-didaktik shartlarini aniqlagan, shuning bilan birga, 2-3 yoshli bolalarga ingliz tilini o`rgatish bo`yicha empirik sinovdan o`tkazilgan metodikani ishlab chiqqanligini ko`rishmiz mumkin. E`tiborli jihati shundan iboratki, O.V. Koryakovtseva xorijiy tillarni o`rgatish yuzasidan juda kichik yosh doirasida o`z tadqiqotlarini olib brogan [6].

L.K. Lichiporenko tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa maktabgacha ta`limda tashkilotlaridagi katta guruh tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o`rgatish yuzasidan olib borilgan bo`lib, tadqiqotlarda katta guruh tarbiyalanuvchilariga ingliz tili o`rgatishning pedagogik qo`llab quvvatlash tamoyillari ochib berilgan. Shuningdek muallifning ishlarida, ingliz tilini o`qitish hissiy va qadriyatlarga asoslangan munosabatlar to`plami sifatida tushunilgan hamda ushbu qarashlar asosida ingliz tili o`rgatish pedagogik tamoyillari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan.

A.V. Belorukova tomonidan bajarilgan ishlar o`rganilganda, muallif tomonidan maktabgacha yoshdagi katta guruh bolalarini chet tildagi matnlarni tushunish va takrorlab o`rganish borasida ilmiy faoliyat olib borilganligi kuzatildi. Muallif tomonidan ma ktabgacha yoshdagi bolalar xorijiy tildagi matnlarni, ayniqsa, audio matn ko`rinishidagi matnlarni tushunishda qiyinchiliklarga uchrayotganligi aniqlangan hamda ushbu muammoga yechim bo`luvchi metodlar taklif qilingan. Ilmiy ishning amaliy ahamiyati sifatida maktabgacha yoshdagi katta guruh bolalari tomonidan chet tilidagi audio matnini tushunish va ongli ravishda takrorlashni rivojlantirish usuli ishlab chiqilgan.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Yuqoridagi barcha ilmiy ishlar o‘rganilganda, maktabgacha ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda o‘yin texnologiyasi hamda interfaol usullardan foydalanish samarali yondashuv ekanligi ma’lum bo‘ldi. Shularni inobatga olgan holda, maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarini o'tkazishda foydalanishning en samarali usullari ishlab chiqildi.

6-7 yoshli bolalarning yosh xususiyatlari: idrokning keskinligi, aniqligi, tasavvurining jonliligi, xotirasining mustahkamligi, tafakkurining ravshanligi boshqa yoshdagi bolalardan qiziquvchanligi va ishonchliligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada e'tibor nisbatan uzoq muddatli va shartli ravishda barqaror hisoblanadi. 6-7 yoshli bolaning so‘z boyligi o‘z fikrini ayta oladigan darajada oshadi. 6-7 yoshli normal rivojlanayotgan bola o`z ona tilida 2000-6000 taga yaqin so'z ishlatadi. Boshlang’ich maktab yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe’l, sifat, son va bog’lovchilardan iborat. Bu yoshdagi bolalar nutqida qaysi so'zlarni qo'llash va qaysi so'zlarni ishlatmaslik kerakligini ajrata oladi. 6-7 yoshli bola murakkab grammatik tizimda gaplar tuza oladi. Bola nutqni intensiv ravishda egallaydi va nutqni o'zlashtirish muayyan faoliyatga aylanadi.

Aksariyat bolalar chet tilini o'rganishning boshlanishini xotirjam va qiziqish bilan qabul qiladilar, ba'zilari esa bo'lajak kursga ishtiyoq bilan qarashadi (ayniqsa, katta yoshda, ota-onalar chet tillarini bilish inson hayotida qanchalik muhimligini allaqachon tushuntirishga muvaffaq bo'lishgan), ozchilik sinfda nima bo'layotganini va ulardan nima talab qilinishini umuman tushunmaydi. Qiziqish paydo bo'lishi va yo'qolmasligi uchun o'qituvchi doimo qo'llaniladigan texnikaning yangiligi haqida g'amxo'rlik qilishi, vaqti-vaqti bilan sevimlilarini takrorlashi, mashg'ulotlarni bir vaqtning o'zida zavq bilan, jiddiy va qiziqarli o'tkazishi kerak. Siz quruq va g'amgin bo'lolmaysiz, materialni oddiy yodlashni talab qilasiz. Seans barcha ishtirokchilar uchun mazmunli tajribaga aylanishi uchun biror narsa qilish kerak. Barcha bolalar barcha turdagi o'yinlardan bir xil zavq olishmaydi, shuning uchun ular guruh tomonidan barcha materiallarni maksimal darajada o'zlashtirishga erishish uchun aylantirilishi kerak.

Ba'zi o'yinlar maqsadli til mamlakatlarida juda keng tarqalgan. Masalan, ingliz tilini o`rgatish uchun foydalanadigan ba`zi o'yinlarda ular bilan bog'liq iboralar qo'llaniladi:

‘‘Simon says” - asosiy o'yinchi “Simon says Close your eyes” - “Simon ko'zlaringizni yuming” dedi kabi buyruqni bersa qolgan bolalar ushbu buyruqni bajarishlari, agar “Close your eyes” buyrug`I o`zi berilsa qatnashuvchilar ushbu buyruqni bajarmasligi lozim. Agar qatnashuvchilar ko`rsatkichlarga rioya qilmasa yutkazadi vao`yindan chiqadi. Ushbu o`yindagi “Simon says” iborasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

“Snakes and ladders” - ushbu “narvonlar va ilonlar” o`yini maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan o'ynaladigan oddiy, oson o`yinhisoblanib, mahsus tuzilgan ko`rgazmali o`yin tarzida o`ynaladi va bu o`yin nafaqat ingliz tilini produktiv o`rgatishga shuningdek, bolalarni jismoniy faollashtirishga ham xizmat qiladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Bolalar bog'chasi o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish uchun o'yin texnologiyasidan foydalanish juda qulay usul hisoblanadi. Sababi, maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning asosiy faoliyati o'yin faoliyatidir. Ular o'yin faoliyatini bajarish orqali o`z diqqatlarini nazorat qila oladilar.

Shunday ekan, bu davrda tarbiyalanuvchilar bilan o'yinlar orqali mashg'ulotlar o'tkazish kutilgan natijani beradi. Quyida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun darslarda foydalanish uchun mo`ljallangan ma`lum bir o'yin turlarini ko'rishingiz mumkin.

Kamalakda nechta rang bor? “Kamalakda nechta rang bor?” ushbu o`yinli mashg`ulot uchun bolalarga kamalak tasviri tushirilgan ishchi qog`oz kerak bo`ladi. Kamalakning tasmalari bo`yalmagan tarzda beriladi va bolalarga ingliz tilida kamalak ranglari aytilib ketma ketlikda raqamlab ko`rsatiladi. Bolajonlar ushbu ranglar ketma ketligidan foydalangan holda qo`llaridagi bosh kamalak tasvirini bo`yaydilar. Chiroyli tasvir paydo bo`lgach bolalar ranglarni mustaqil raqamlab aytishi lozim bo`ladi: 1.red, 2. orange, 3. yellow, 4. green, 5. blue, 6. indigo and 7. purple. Ushbu mashg'ulot mayda motorika ko'nikmalari rivojlanishiga, ranglarni eslab qolish barobarida xotira va diqqat oshishiga, shuning bilan birga 1-10 gacha raqamlarni hisoblashni o'rganishga yordam berib, katta hamda maktabga tayyorlov guruh bolalari uchun mos keladi [12].

Alifboni quramiz! Nomi bilan e`tiborimizi tortuvchi “Alifboni quramiz” o`yini uchun bizga alifbo harflari aks etgan A4 formatda ko`rgazmali qurollar zarur bo`ladi. Bolalar ushbu qiziqarli ko`rgazmalardan alifboning A-Z gacha bo'lgan katta harflarni kuzatib, o`rganadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar va bolalar bog'chalari uchun mo`ljallangan ushbu ish varag'i tarbiyalanuvchilarga juda katta foyda beradi, chunki ular erta savodxonlik ko`nikmalarini, jumladan alifboni o`qish va harflarni yozishni o`rganishda poydevor yaratadilar [11].

“Hayvon nomlari” Ingliz tilini o'rganish uchun eng yaxshi o'yinlardan biri, “Hayvon nomlari” bolalarga hayvonlarning nomlari va ularning yozilishini o'rganishga yordam beradi. Bolalar tegishli hayvonningrsasmini tanlab oladi va ma`lum belgilangan vaqt tugashidan oldin harflarni kerakli joyga keltirib, hayvonlarning nomini yozishlari kerak [11].

Ushbu o'yinni bola bilandoim o`ynash mumkin va bunda nafaqat hayvonlardan balki bolalarga qiziqarli bo`lgan boshqa mavzuga oid so`zlardan foydalanib ham o`ynash mumkin bo`ladi. Ushbu o`yin ham bolaga o`qish va yozishni o`tganishda katta yordam berib, diqqat va xotirani shakllantirishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, o`yin texnologiyalari maktabgacha ta'lim muassasalarida samarali usul hisoblanadi. Bolalarning ushbu yoshdagi psixologik, fiziologik hamda emotsional jihatlarini hisobga oladigan bo`lsak, ushbu davrda asosiy faoliyat turi o`yin faoliyatidir, mashg`ulotlarda foydalaniladigan o`yin turlari bolaning yoshi, qiziqishlari va albatta, ta'lim dasturlari asosida tanlanadi. Bolalar uchun eng foydali o`yinlar - ta'limiy o'yinlar, rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda o‘yinlardan unumli foydalanish ularning kelgusida ingliz tilida samarali faoliyat olib borishini ta’minlaydi. Bu ularning bugungi kundagi o'yin faoliyatiga bo'lgan

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

talabini ham qondirishga xizmat qiladi. Aynan shuning uchun bolalarga xorijiy tilni o`rgatishda muntazam ravishda turli o`yinlarni o`tkazib borish lozimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (2-nashr), 2022-yil
3. Sh.B. Raximova, “Maktagacha ta`lim yo`nalishi talabalarining ingliz tilini o`zlashtirish sifatini boshqarish”, avtoreferat, Toshkent- 2023
4. Tajibayev Gayratjon Shovdorovich tomonidan yozilgan “Boshlang`ich sinf o`quvchilariga chet til o`qitishda kommunikativ yondashuv”, dissertatsiya, T.: 2019
5. Isaqulova Baxtigul Xo`jamovna “Didaktik o`yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o`rgatish metodikasini takomillashtirish”, avtoreferat. Toshkent-2023
6. O.V Koryakovtseva “Metodika obucheniya angliyskomu yaziku detey preddoshkolnogo vozrasta”, avtoreferat, Moskva-2010
7. Shohsanam Doniyorovna Asiljonova (2023). METHODOLOGIES FOR TEACHING ENGLISH IN EARLY CHILDHOOD EDUCATION. Academic research in educational sciences, 4 (5), 632-639.
8. Shohsanam, A. (2024). PRODUCTIVE ACTIVATION OF THE SCHOOL PREPARATION GROUP`S STUDENTS THROUGH GAMES IN ENGLISH. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(2), 161–165.
9. S Asiljonova. Methodological advancements in the English instruction of preschoolers, - Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 2023
10. Anjela Alimardon Qizi Kuganova, & Shohsanam Doniyorovna Asiljonova (2022). FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA TARJIMA. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (3), 72-77.
11. https://www.education.com/worksheet/article/trace-write-missing letters
12. https://www.education.com/worksheet/article/count-and-color-activity-2
13. https://www.education.com/worksheet/article/missing-numbers-1-100

MUALLIF HAQIDA MA`LUMOT [ИНФОРМАЦИА ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Asiljonova Shohsanam Doniyor qizi,** PhD,doktorant [**Асилжонова Шохсанам,** PhD докторант], [**Asiljonova Shohsanam,** PhD, doctorate student]; Manzil: Toshkent viloyati, Yu.Chirchiq, Sultonravot, Paxtakor 8;[адрес: Ташкентская область, Ю.Чирчик, Султанравот, Пахтакор 8]; [address: Tashkent region, Yu.Chirchik, Sultanravot, Pakhtakor 8]; ORCID:https://orcid.org/0009-0006-5080-4228, shohsanamasiljonova 7@gmail.com

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Original paper

YENGIL ATLETIKA SPORT TO'GARAKLARIDA MASHG'ULOT OLIB BORAYOTGAN TALABA QIZLAR JISMONIY TAYYORGARLIGINING MATEMATIK TAHLILI

© O.A.Ergasheva[1]✉
[1]Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada yengil atletika sport to'garaklarida muntazam ravishda mashg'ulot olib borayotgan talaba qizlarning fiziologik va jismoniy holati o'rganilgandan so'ng ularning jismoniy tayyorgarlik jarayonlari hamda jismoniy sifat darajalarining shakilllanib borishi, jismoniy tayyorgarlik tizimlari, jismoniy sifat ko'rsatkichlarining o'sishi kuch jismoniy sifatining dinamikasi misolida jismoniy yuklamadan oldin va keyin matematik tahlil qilinadi.

MAQSAD: talaba qizlarning dars mashg'ulotlaridan tashqari holatda yengil atletika sport to'garaklari bilan mashg'ulot olib borish jarayonlarida ulardagi jismoniy ko'rsatkich holatlarini aniqlash va shu asosda mashg'ulot yuklamasini ishlab chiqish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot olib borilayotgan fan va texnologiyalarni talabalarda qay darajada o'zlashtira olish va ularning mashqlarni o'zlashtirishdagi holatlar va qiyinchiliklarni o'rganishdan keyingi ta'sir qilishini tahlil qilish uchun 5 ta ilmiy maqoladan iborat korpus yaratildi.. Yig'ilgan maqolalar 2021-2023 yillar oralig'ida xalqaro va milliy akademik jurnallarda chop etilgan. Bu maqolalar tahlil qilindi va qiyosiy tahlil olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: yengil atletika sport to'garaklarida mashg'ulot olib borayotgan talaba qizlar jismoniy tayyorgarligining matematik tahlili, yengil atletika mashg'ulot jarayonlari vaqtida umumjismoniy sifat darajalarini oshirish va shu asosda mashg'ulot yuklamasini qo'llashda qo'l kelishi mumkin.

Bu o'rinda, yuqoridagi fikr-mulohazalarimizga xulosa sifatida quyidagilarni tavsiya etishimiz mumkin:

birinchisi, talaba qizlarning dars mashg'ulotlaridan tashqari holatda yengil atletika sport to'garaklari orqali mashg'ulot olib borish jarayonlaridan oldin, mashg'ulot jarayonida va mashg'ulotlardan so'ng ulardagi jismoniy va fiziologik ko'rsatkich holatlarini aniqlash zarur.

ikkinchisi qizlar organizmida ro'y beradigan tabiiy fiziologik holatlarni hisobga olgan holda individual mashg'ulot yuklamasini ishlab chiqish o'rganilishi kerak.

uchinchisi, ishlab chiqilgan individual mashg'ulot yuklamasini qo'llaganimizdan so'ng qizlar organizmi jismoniy sifat ko'rsatkichlari samaradorligining asosga ega ekanligini aniqlash kerak.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

XULOSA: jismoniy yuklamadan oldingi va keyingi davrlarda qayd etilgan o‘lchovli ma’lumotlar o‘rtasida farqlanishlar haqqoniyligi styudentning t - kriteriyasi bo‘yicha aniqlandi. Hisoblangan empirik t (5.22) qiymat, qiyoslashtiriladigan jadval t=0,05 qiymatidan katta bo’lganligi, bolalarning o’quv yili boshida va oxirida qayd etilgan uzunlikka sakrash natijalari ortasida r < 0,05 (5% li ahamiyat darajasida) ishonchli farq mavjudligini ko’rsatadi. O’quv yili davomida talaba qizlarni jismoniy rivojlantirishning pedagogik jarayon samaradorligini yetarlicha asosga ega ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Xotin-qizlar sporti, yengil atletika sport to’garaklari, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifat ko’rsatkichi, fiziologik holat, fiziologik ko’rsatkich, jismoniy rivojlanish, individual mashg’ulot yuklamasi, matematik-statistik tahlil.

Iqtibos uchun: Ergasheva O.A. Yengil atletika sport to’garaklarida mashg’ulot olib borayotgan talaba qizlar jismoniy tayyorgarligining matematik tahlili // Inter education & global study. 2024. № 3(1). B. 89–95.

МАТЕМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СТУДЕНТОК, ЗАНИМАЮЩИХСЯ В СПОРТИВНЫХ КРУЖКАХ ПО ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКЕ

© О.А. Эргашева[1]✉
[1]Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье после изучения физиологического и физического состояния студенток, регулярно занимающихся в легкоатлетических спортивных секциях, процессов их физической подготовки и развития уровней физического качества, систем физической подготовки, а также роста показателей физического качества на примере динамику физического качества силы до и после физической нагрузки, проводится математический анализ.

ЦЕЛЬ: определить условия физической работоспособности студенток в процессах занятий с легкоатлетическими спортивными секциями вне занятий и на основе этого разработать тренировочную нагрузку.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: с целью анализа того, насколько студенты могут освоить изучаемую науку и технику и их влияние на учебные ситуации и трудности после изучения упражнений, создан корпус из 5 научных статей.Сборник статей 2021-2023 гг., опубликованный в международных и национальных академических журналах. . Эти статьи были проанализированы и получен сравнительный анализ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: математический анализ физической подготовленности студенток, занимающихся в легкоатлетических секциях, может быть полезен для повышения уровня общего качества тела в ходе легкоатлетических тренировок и применения на этой основе тренировочной нагрузки.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Здесь, в качестве заключения к нашим вышеизложенным комментариям, мы можем порекомендовать следующее:

Прежде всего, необходимо определить условия физической и физиологической работоспособности студенток до, во время и после занятий в легкоатлетических спортивных секциях.

второй – изучить разработку индивидуальной тренировочной нагрузки с учетом естественных физиологических условий, возникающих в организме девушек.

в-третьих, после применения разработанной индивидуальной тренировочной нагрузки необходимо определить, имеет ли под собой основу эффективность показателей физического качества тела девушек.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: достоверность различий между данными измерений, зафиксированными в периоды до и после физической нагрузки, определяли по t-критерию Стьюдента. Рассчитанное эмпирическое значение t (5,22) превышает значение сравнительной таблицы t=0,05, что свидетельствует о достоверном различии r <0,05 (уровень значимости 5 %) между результатами детей в прыжках в длину, зафиксированными в начале и в начале обучения. шоу конца учебного года. В течение учебного года установлено, что эффективность педагогического процесса физического развития студенток имеет достаточную основу.

Ключевые слова: женский спорт, легкоатлетические спортивные секции, физическая подготовка, показатель физического качества, физиологическое состояние, физиологический показатель, физическое развитие, индивидуальная тренировочная нагрузка, математико-статистический анализ.

Для цитирования: Эргашева О.А. Математический анализ физической подготовленности студенток, занимающихся в спортивных кружках по легкой атлетике. // Inter education & global study. 2024. № 3(1). С. 89–95.

THE MATHEMATICAL ANALYSIS OF THE PHYSICAL FITNESS OF FEMALE ATHLETES INVOLVED IN ATHLETIC SPORTS CLUBS

© Ozoda A. Ergasheva[1]✉
[1]Ferghana State University, Ferghana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in this article, after studying the physiological and physical condition of female students who regularly train in athletics sports clubs, their physical training processes and the development of physical quality levels, physical training systems, and the growth of physical quality indicators as an example of the dynamics of the physical quality of strength, before and after physical loading, mathematical analysis is performed.

AIM: to determine the conditions of physical performance of female students in the processes of training with athletics sports clubs outside of classes and to develop a training load based on this.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

MATERIALS AND METHODS: a corpus of 5 scientific articles was created in order to analyze the extent to which students can master the science and technology under study and their impact on learning situations and difficulties after learning the exercises. Collected articles 2021-2023 published in international and national academic journals. These articles were analyzed and a comparative analysis was obtained.

DISCUSSION AND RESULTS: mathematical analysis of the physical fitness of female students training in athletics clubs can be useful in increasing the levels of general body quality during athletics training and applying the training load on this basis.

Here, as a conclusion to our above comments, we can recommend the following:

First of all, it is necessary to determine the conditions of physical and physiological performance of female students before, during and after training through athletics sports clubs. The second is to study the development of an individual training load, taking into account the natural physiological conditions that occur in the body of girls.

thirdly, after applying the developed individual training load, it is necessary to determine whether the effectiveness of the physical quality indicators of the girls' body has a basis.

CONCLUSION: the authenticity of the differences between the measured data recorded in the periods before and after the physical load was determined by the student's t-criterion. The calculated empirical t (5.22) value is greater than the value of the comparative table t=0.05, that there is a reliable difference r < 0.05 (5% significance level) between the long jump results of children recorded at the beginning and at the end of the school year shows. During the academic year, it was found that the effectiveness of the pedagogical process of physical development of female students has a sufficient basis.

Key words: women's sports, athletics sports clubs, physical training, physical quality indicator, physiological condition, physiological indicator, physical development, individual training load, mathematical and statistical analysis.

For citation: Ozoda A. Ergasheva (2024) 'The mathematical analysis of the physical fitness of female athletes involved in athletic sports clubs', Inter education & global study, (3(1)), pp. 89–95. (In Uzbek).

Jamiyatimizda xotin-qizlarning salomatligini yaxshilash, amaliy-kasbiy tayyorgarligini davlat ta'lim standartlariga muvofiq rivojlantirish uchun jismoniy mashqlar hajmini optimal darajada belgilamay turib qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Xotin-qizlar organizmiga xos jismoniy yuklama hamda rejalashtiriladigan yuklama hajmi va shiddat me'yorlarining tayyorgarlik darajasiga, yoshiga mos optimallashtirish jismoniy tarbiya qonuniyatlarini belgilovchi bosh mezon bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida talaba qizlar organizmining fiziologik va jismoniy holatlarini baholagan holda ularga o'quv yili davomida jismoniy sifatlar rivojlanishiga turtki bo'ladigan mashqlar ishlab chiqildi va talaba qizlar yordamida amalda sinaldi. Talaba qizlardan jismoniy sifat darajalari va tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlash

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

maqsadida nazorat sinov me'yorlari olindi. Unga ko'ra dastlab kuch jismoniy sifat darajalarini aniqlash uchun turgan joydan uzunlikka sakrash amaliyot sinovi olindi.

Jismoniy tarbiya sohasida o'tkaziladigan barcha tekshiruvlar pedagogika yo'nalishida amaliy ahamiyatli va mohiyatan turlicha bo'lgan o'lchovlar bilan bog'liq bo'lib, faqat arifmetik amallar vositasida qanchalik haqqoniy natijalar olinganligini bilish mumkin.

Tadqiqotlar natijalari statistik ishlab chiqildi. Unda guruhlarning ko'rsatkichlari hisoblandi, statistik farazlar tekshirildi. Tadqiqotda x-o'rtacha uslublardan shuningdek ishonchlilikning t-mezonidan foydalangan holda talaba-qizlar jismoniy rivojlanishining dinamikasi va o'zgarish ko'rsatkichlari dinamikasining ishonchliligini baholash amalga oshirildi.

Jismoniy tayyorgarlik samaradorligini aniqlash maqsadida qiyosiy tajriba o'tkazildi va tajriba guruhi tarkibida 14 nafar talaba qizlar ishtirok etdi.

Zamonaviy standartlar ham, pedagoglar uchun nazorat sinovlarni bajarishning barcha vaziyatlariga mos etalon me'yorlarini tavsiya etaolmaydi. Jismoniy tarbiya ta'limini individuallashtirishning ratsional yechimi bu o'quv yili davomida o'lchov natijalarining o'zgarishini qiyoslashda, o'zaro bog'liq tanlanmalarning o'rtacha farq ishonchligini baholash usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim muassasasi talaba qizlari misolida joyida turib uzunlikka sakrash natijalarining o'rtacha farqlanish ishonchligini hisoblash

№	Talaba qizlarning ism familiyasi	O'quv yili boshidagi ko'rsatkichlar x_1	O'quv yili oxiridagi ko'rsatkichlar x_2	Farq d = $x_2 - x_1$	O'rtachadan og'ish d – $\bar{d}$	Og'ish kvadratlari $(d - \bar{d})^2$
		1	2	3	4	5
1	Abdubannoyeva Z	146	185	39	8	65.1
2	Alijonova R	155	185	30	-0.92	0.86
3	Abdullayeva M	131	190	59	28	788
4	Muhammadiyeva S	149	195	46	15	227.1
5	Odiljonova M	146	220	74	43	1855
6	G'anijonova H	164	160	-4	-34.9	1220
7	Abdug'apporova G	163	155	-8	-38.9	1515.4
8	Adhamova F	162	190	28	-2.9	8.5
9	Abduhamidova M	130	175	45	14	198
10	Jo'rayeva G	137	175	38	7	50
11	Ilhomjonova N	157	170	13	-17.9	321.4
12	To'lqinova M	139	165	26	-4.9	24.2
13	Ashurova I	170	193	23	-7.9	62.8
14	Malikova F	150	174	24	-6.9	48
				$\sum d$ =433		$\sum(d - \bar{d})^2$ =6384.4

Ishonchlilikning **t**-mezonidan foydalangan holda, bola jismoniy rivojlanishining dinamikasi va o'zgarish ko'rsatkichlari dinamikasini baholash ishonchliligini hisoblash tartibi, quyidagicha:

1. Maxsus jadvalning birinchi va ikkinchi ustunlari to'ldiriladi. Oliy ta'lim muassasasi talaba-qizlarining o'quv yili boshida (x_1) va o'quv yili oxirida (x_2) qayd etilgan turgan joyda

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

uzunlikka sakrash ko'rsatkichlari aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 6 nafar talaba (Odiljonova M (d=74), Abdullayeva M (d=59), Abdubannoyeva Z (d=39) , Abduhamidova M (d=45), Muhammadiyeva S (d=46), Jo'rayeva G (d=38))larda o'quv yili boshidagi va o'quv yili oxiridagi ko'rsatkichlar orasidagi farq (d =$x_2 - x_1$) sezilarli darajada yuqori natijani qayd etdi. 2 nafar talaba (G'anijonova H (d=-4), Abdug'apporova G (d=-8)) larda o'quv yili boshidagi ko'rsatkichlar 164 sm va 163 sm.ni tashkil qiligan bo'lsa o'quv yili oxiriga kelib 160 sm va 155 sm.ni tashkil qilmoqda. Ya'ni faqat shu talabalarimizning o'quv yili oxiridagi natijalari o'quv yili boshidagiga nisbatan past ko'rsatkichni qayd etmoqda (jadvalga qarang).

2. Birinchi va ikkinchi qatorlar o'rtasidagi farq ko'rsatkichi uchinchi ustunda hisoblanadi: $\sum d$ =433

3. Farqning o'rtacha qiymati hisoblanadi:

$$\bar{d} = \frac{\Sigma d}{\dot{n}} \bar{d} = \frac{433}{14} = 30.9$$

4. Farqning o'rtacha qiymatidan og'ish hisoblanadi d –$\bar{d}$.

5. Hisoblangan og'ish qiymatlarini kvadratga oshiriladi (5-ustun).

6. Formula yordamida standart og'ish hisoblanadi:

$$\sigma_d = \sum \sqrt{\frac{\sum \left(d - \bar{d}\right)^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{6384.4}{14-1}} = 22.2$$

7. Formula yordamida o'rtacha xatolik m_d hisoblanadi:

$$m_d = \frac{\sigma_d}{\sqrt{n-1}} m_d = \frac{22.2}{\sqrt{14-1}} = 6.16$$

8. t qiymati hsoblanadi:

$$t = \frac{\bar{d}}{m_1} = \frac{30.9}{6.16} = 5.01$$

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi Sog`lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risidagi PF-5953-sonli farmoni. Lex.uz.
2. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'zDJTI, 2005.-300 b.
3. Ашмарин Б.А. Теория и методика исследований в физическом воспитании: Учебное пособия М.: 1978. – 223 с.
4. Волков Л.В. Методические разработки по педагогическому контролю в физической подготовке школников.-Киев,: МП Укр. 1979. 30 с.5. To'ychiboyev M.U. Sport biokimyosi.-Toshkent: Tafakkur-bo'stoni, 2012.-198 b.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

5. Семёнова Г.И., Городничева Н.Я. Развитие физических качеств: Учебно-методическое пособие. – Тоболъск: ТПТИ им. Д.И. Менделеева, 2002. – 44 с.
6. Смирнов Ю.И., Полевшиков М.М. Спортивная метрология: Учеб. для студ. педвузов. – М.: Академия, 2000. – 232 с.
7. Эргашева, О. А. К. (2022). Роль физического воспитания как учебной дисциплины. Вестник науки и образования, (10-2 (130)), 58-61.
8. Ergasheva, O.A. (2023). Oliy ta'lim muassasasi talabalari bilan o 'tkaziladigan yengil atletika bo 'yicha to 'garak mashg 'ulotlarining mazmuni. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 155-158
9. Ergasheva, O.A. (2021). Psychological characteristics of movements of primary schoolchildren. ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (103), 956-959
10. Kadirov R.H. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatini ilmiy tadqiq qilish:o'quv qo'llanma - Toshkent : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2018. - 206 b.
11. Kadirov R.H. Jismoniy tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi: darslik - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 184 b.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ergasheva Ozoda Asqar qizi**, o'qituvchi [**Эргашева Озода Аскаровна**, преподаватель], [**Ozoda A. Ergasheva**, teacher]; manzil: O'zbekiston, Farg'ona, Farg'ona shahar, Iftixor mahallasi Mustaqillik ko'chasi 50A - uy 42 xona; [адрес: Узбекистан, Фергана, город Фергана, микрорайон Ифтихор, улица Мустакиллик 50А - дом 42 квартиры]; [address: Uzbekistan, Fergana, Fergana city, Iftikhor neighborhood, Mustaqillik street 50A - house 42 apartments.]; ORCID: https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0004-5330-2843

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Original paper

MUSIQA TERAPIYASIDA MUSIQANING INSON RUHIYATIGA TA’SIRI

© S.F. Qudratova[1]✉
[1]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada musiqa terapiyasida musiqaning inson ruhihatiga hamda kompozitorlarning klassik musiqasi orqali inson kamolotiga, balkida jonsiz narsalarga ham o’z ta’sirini ko’rasatishi haqida fikrlar yuritilgan. Sharq olimlarining olib borgan tadqiqotlar natijalari haqida turli mulohaza va fikrlar keltirilgan.

MAQSAD: musiqa terapiyasi - ko'pchilik insonlarning o'zlaridagi psixologik zo'riqishni bartaraf etishda, tinchlanish va fikrlarini jamlashda, hissiy holatlarini yaxshilashda qo'llaniladigan tabiiy usuldir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot olib borilayotgan fan va texnologiyalarni talabalarda qay darajada o‘zlashtira olish va ularni bu fanni o‘zlashtirishdagi qulayliklar va qiyinchiliklarni o‘rganishdan keyingi ta’sir qilishini tahlil qilish uchun 5 ta ilmiy maqoladan iborat korpus yaratildi. Yig‘ilgan maqolalar 2022-2024 yillar oralig‘ida xalqaro va milliy akademik jurnallarda chop etilgan. Bu maqolalar tahlil qilindi va qiyosiy tahlil olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri ilmiy tadqiqotlar va ilmiy dalillar orqali izohlangan. Qadimgi va O'rta asrlarda musiqaning ta'sir darajasi qanchalik o'rganilgani tahlil etilgan va bugungi kunda musiqiy psixoterapiyaning ta'lim tizimidagi roli maxsus terapiya faoliyat orqali aniqlangan.

XULOSA: musiqa va inson psixologiyasi bir-biri bilan uzviy bog’liqdir. musiqa inson ongiga ijobiy ta’sir etib uni turli xil stresslardan, kasalliklardan halos etadi va inson hayotida muhim o’rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: musiqiy terapiya, musiqa, ruhiyat, klassik musiqa, san’at, musiqa psixologiyasi.

Iqtibos uchun: Qudratova S.F. Musiqa terapiyasida musiqaning inson ruhiyatiga ta’siri // Inter education & global study. 2024. № 3(1). B. 96–101.

ВЛИЯНИЕ МУЗЫКИ НА РАЗУМ ЧЕЛОВЕКА В МУЗЫКАЛЬНОЙ ТЕРАПИИ

© С.Ф. Кудратова[1]✉
[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается влияние музыки на дух человека в музыкотерапии и совершенствовании человека через классическую музыку

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

композиторов, а также на неодушевленные предметы. Существуют различные комментарии и мнения о результатах исследований, проведенных восточными учеными.

ЦЕЛЬ: музыкальная терапия – это естественный метод, используемый многими людьми для снятия психологического стресса, успокоения и сосредоточения мыслей, а также улучшения эмоционального состояния.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: с целью анализа того, в какой степени студенты могут освоить изучаемую науку, а также влияние легкости и сложности освоения этой науки после обучения, создан корпус из 5 научных статей. Сборник статей 2022-2024 гг., опубликованный в международных и национальных изданиях. академические журналы между годами. Эти статьи были проанализированы и получен сравнительный анализ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: влияние музыки на психику человека было объяснено с помощью научных исследований и научных данных. Проанализирована степень изучения музыки в древности и средневековье, а также определена роль музыкальной психотерапии в системе образования сегодня посредством специальных терапевтических мероприятий.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: музыка и психология человека неразрывно связаны. Музыка положительно влияет на психику человека, избавляет его от различных стрессов и болезней, занимает важное место в жизни человека.

Ключевые слова: музыкальная терапия, музыка, психология, классическая музыка, искусство, музыкальная психология.

Для цитирования: Кудратова С.Ф. Влияние музыки на разум человека в музыкальной терапии. // Inter education & global study. 2024.№3(1). С.96–101.

THE INFLUENCE OF MUSIC ON THE HUMAN MIND IN MUSIC THERAPY

© Sevara F.Kudratova[1]✉
[1]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the influence of music on the human spirit in music therapy and human improvement through classical music of composers, as well as on inanimate objects. There are various comments and opinions about the results of research conducted by Eastern scientists. The article is revealed through photographs.

AIM: music therapy is a natural method used by many people to relieve psychological stress, calm the mind and focus, and improve emotional well-being.

MATERIALS AND METHODS: in order to analyze the extent to which students can master the science and technology they are studying, as well as the influence of the ease and complexity of mastering this science after training, a corpus of 5 scientific articles was created. A collection of articles 2022-2024, published in international and national

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

publications. academic journals between years. These articles were analyzed and a comparative analysis was obtained.

DISCUSSION AND RESULTS: the influence of music on the human psyche has been explained through scientific research and scientific evidence. The degree of study of music in antiquity and the Middle Ages is analyzed, and the role of music psychotherapy in the education system today through special therapeutic activities is determined.

CONCLUSION: music and human psychology are inextricably linked. Music has a positive effect on the human psyche, relieves him of various stresses and illnesses, and occupies an important place in a person's life.

Key words: music therapy, music, psychology, classical music, art, music psychology.

For citation: Sevara F. Kudratova (2024) 'The influence of music on the human mind in music therapy', Inter education & global study, (3(1)), pp.96–101. (In Uzbek).

Musiqiy terapiya- bu terapevtik vosita sifatida musiqadan foydalaniladigan psixoterapevtik usul."Musiqa terapiya" atamasi yunon-lotin tilidan kelib chiqqan va tarjimada "Musiqa bilan davolash" degan ma'noni anglatadi. „Musiqa terapiya" tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Olimlarning katta qismi musiqa terapiyasini psixoterapiyaning yordamchi vositasi, bemorlarni murakkab terapevtik usullardan foydalanishga maxsus tayyorlash vositasi deb bilishadi.

Musiqaning inson ruhiy va jismoniy holatiga sezilarli ta'sirini tasdiqlagan birinchi odamlardan biri yunon olimi va faylasuf Pifagor edi. Yamblichning "Pifagor hayoti to'g'risida" asaridan ko'rinib turibdiki, agar kimdir chiroyli ritmlar va qo'shiqlarni tinglasa, unda bunday odam musiqiy ta'limni ohang va ritmlardan foydalangan holda, inson axloqi va ehtiroslari davolanadi va aqliy kuchlarning dastlabki uyg'unligi o'rnatiladi. Hindistonda musiqiy terapiya usullari keng qo'llanilgan. Bu raga nazariyasiga mos keladi (har bir raga ma'lum bir kayfiyatga mos keladi, odamning holatidagi o'zgarishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun depressiya va boshqa kasalliklarni davolash mumkin (hind shifokorlarining fikriga ko'ra). Musiqa terapiyasi Xitoyda ham ma'lum bo'lgan.

Islomiy Sharq tibbiyotining donishmandi Avitsena (Abu Ali ibn Sino, 983 — 1036) "Tib qonunlari" da musiqaning terapevtik vosita sifatida ta'siri haqida yozgan.

Bir nechta ilmiy izlanishlarga ko'ra: Motsartning "D major" sonatasini tinglash bemorlarda epilepsiya xurujlari sonini kamaytirishga yordam bergan. Buni „Motsart effekti" deb ham atashdi. Biroq, ushbu tadqiqot natijalarining ishonchliligi unga qo'yilgan cheklovlar va keyingi tadqiqotlarda natijalarni takrorlay olmaslikka sabab bo'ldi. Ba'zi shifokorlar musiqa mushaklarning bo'shashiga yordam beradi, ayniqsa tez yurish va yugurish paytida va semirib ketgan odamlarning yaxshi jismoniy holatini saqlab qolish uchun qo'shimcha reabilitatsiya terapiyasi sifatida ishlatilishi mumkin deya maslahat berishadi. Bundan tashqari, musiqa kayfiyat va hissiyotlarga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, bu esa sport ruhini saqlashga imkon beradi va shu bilan fitnes yutuqlariga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Muayyan turdagi musiqa tinglash yurak urishini sekinlashtirishi va qon bosimini pasaytirishi mumkin. Tadqiqotchilar musiqa va sukunatning turli xil kombinatsiyalarini sinab ko‘rishdi va ritmik va sokin kuylar qon oqimi va yurakka eng yaxshi ta’sir ko‘rsatishini aniqladilar. Amaliyotchi musiqa terapevt-psixologlarning ta’kidlashicha, to‘g‘ri tanlangan kuylar, musiqiy asarlar, improvizatsiyalar xotira va ongsizlik bilan ishlash uchun qulay vositadir. Musiqa fikrlash va xotira jarayonlarini yaxshilaydi. Tovushlar assotsiativ tuzilmalarga o‘zaro ta’sir qiladi, haqiqiy xotiralar va tajribalarni yuzaga, ongga tortib oladi.

San’at bilan davolashda bir necha turdosh yo‘nalishlar mavjud: musiqiy psixologiya; musiqaning hissiy ta’siri; aqs harakati terapiyasi; art terapiyasi; ram terapiyasi; qo’g’irchoq terapiyasi; ertak terapiyasi; logotip ritmi.

Musiqa insonga tez ta’sir etuvchi emottsional hissiyotini aktiv rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa orqali ona allasi bilan tanishib umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruxiyatini ajralmas qismi bo’lib, madaniyatli sof qalb egasi, go‘zallikni his eta oladigan o‘z kasbiga, Ona Vatanga mehr qo‘ygan bo‘lishi kerak. Shu bois o‘quvchilarda inson ma’naviyatining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo‘lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqa o‘qituvchisining oldiga qo‘yilgan vazifalari bir talay. Musiqadagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish o‘qituvchining professional va axloqiy qiyofasiga bog‘liq. Har qanday san’atkor ham maktabda musiqa darsini olib bora olmaydi. Buning uchun musiqa o‘qituvchisi o‘z kasbiga va bolalarga mehr qo‘ygan yuksak madaniyatli, keng qarashga ega bo‘lgan shaxs bo‘lmog‘I lozim.

Musiqa... U insonning ruhini kulidan tiriltirishga, unga aql bovar qilmaydigan his-tuyg'ularni va his-tuyg'ularni boshdan kechirishga qodir. San’at mualliflar o‘z fikrlarini insonga yetkazishga, uni go‘zallikka ko‘niktirishga harakat qiladigan vositadir. Muallif musiqaning hayotimizga ehtiyoji haqida gapirar ekan, “Yuksak musiqani his qilishni o‘rganish kerak bo‘lganidek, go‘zalni ham o‘rganish, qadrlash kerak” degan fikrga e’tibor qaratadi. Yuriy Bondarev tinglovchilarga tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada ta’sir qiladigan Motsartning “Rekviyem”ini misol qilib keltiradi, “odamlar buyuk bastakorning hayoti tugagan epizodda ochiqchasiga ko‘z yoshlarini to‘kishdi”. Shunday qilib, muallif musiqa inson qalbining nozik torlariga tegishi, uni g'ayrioddiy tuyg'ularni boshdan kechirishi mumkinligini ko'rsatadi. Bondarevning ta'kidlashicha, musiqa insonga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki bu uning hayotidagi eng go'zal narsadir. Musiqa insonni o'zgartirishi mumkin. Bu o'rganish kerak bo'lgan narsa. Darhaqiqat, muallifning fikriga qo'shilmaslik mumkin emas. Ishonamanki, musiqa bizga quvonch va qayg'u, g'amginlik va hayajon, baxt va boshqa ko'plab his-tuyg'ularni uyg'otadi. Demak, I.A. Goncharovning “Oblomov” asarida bosh qahramonning musiqaga munosabati yorqin tasvirlangan. Olga Ilinskayaga tashrif buyurgan Oblomov birinchi bo'lib uning pianino chalishni eshitdi. Muallif bizga musiqa insonning ichki dunyosiga, uning his-tuyg'ulariga qanday ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Ajoyib o'yinni tinglab, qahramon ko'z yoshlarini zo'rg'a ushlab turdi, unda kuch, yashash va harakat qilish istagi paydo bo'ldi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Albatta, musiqa shaxsni shakllantirishning, uning ijobiy fazilatlarining yo'nalishlarini o'z-o'zidan belgilab bermaydi. Tarbiyaviy ta'sirning eng muhim tomonlari musiqiy asarning g'oyaviy mazmuniga bog'liqdir. Ana shu bilan musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi. Mashhur polyak kompozitori K.Shimanovskiy o'zining «Jamiyatda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati» nomli maqolasida, musiqaning tabiiy kuchi haqida gapirar ekan, - uning ikki qarama-qarshi yo'nalishda - yaratish va bo'zish uchun ishlatish mumkinligini — «kerakli ishga yo'naltirgan holda, tez oqar daryoning suvlaridan foydalanib, foydali va unumli ishlar uchun, ya'ni tegirmonni aylantirish uchun ishlatgandek, musiqa kuchidan ham unumli foydalanish kerak», - deb aytgan.

Shu o'rinda Asafevning « musiqa – bu ham san'at, ham fan, ham til, ham o'yin» – degan so'zlarini eslash maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy va ruhiy salomatlikka ham musiqaning ijobiy ta'sirini ilmiy tomonlama o'rgangan ilk mutaxassislardan biri faylasuf Pifagor bo'lsa, Sharqda esa tibbiyotning yetuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino o'zining "Tib qonunlar "asarida ushbu san'at turini davolovchi vosita sifatida qayt etib, "Kitab ash –shifa" ya'ni "Davolash kitobi" nomli qomusiy asarida to'liq bir bo'limni musiqa va puls o'rtasidagi o'zaro aloqalarga bag'ishlaydi.

Musiqa terapiyasi nafaqat inson kamolotiga ta'siri, balkida jonsiz narsalarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Rus olimlari olib borgan tadqiqotlariga ko'ra "Musiqaning suvga ta'siri" ustida izlanishlar olib borishgan. Natijalar shuni ma'lum qilganki…..



1- rasm



2-rasm



3-rasm



4-rasm

To'rt stakan suvni chetel kompozitorlari V.A. Motsart, L.V. Betxoven, I.S. Bax va rok musiqasi bilan birga muzlatishgan va har bir muzlangan stakan dan muz zarrachalarini mikroskopda kuzatishgan. Birinchi stakanda Bax "Ariya na strune sol" (1-rasm) Ikkinchi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

stakanda Motsart “Simfoniya N40” (2-rasm) Uchinchi stkanda Betxoven “Simfoniya N6” (3-rasm) To’rtinchi stakan da esa “qattiq rok” (4-rasm)
Rasmlardan ko’rinib turibdiki, chet el kompozitorlarining klassik musiqasini tinglab muzlangan zarralarda maftunkor naqsh gul aks ettirilgan. To’rtinchi stakan muz parchasida hech qanday ma’no mantiq yoqligi namoyon bo’lgan.

Xulosa qilib aytganda, musiqa o’zi 7 tovushdan iborat bo’lsa ham, borliqdaki jamiki xoh u jonli bo’lsin, xoh jonsiz uning ta’siri ilohiydir. Musiqiy terapiya bilan bog’liq eng qadimiy masal qadimgi Ahdda keltiriladi – Dovud arfa chalib, Sauln dpressiyadan davolaydi. Aristotel ham musiqani nafaqat davolash, balki ruhni tozalash vositasi deb hisoblagan. Qadimgi arab shifokorlari esa musiqa inson ruhidan o’tib, uning tanasini davolashi mumkinligini ta’kidlagan va buni amaliyotda sinab, ijobiy tomonlama o’zgarishlar guvohi bo’lgan. Musiq va inson psixologiyasi bir-biri bilan uzviy bog’liqdir. Musiqa inson ongiga ijobiy ta’sir etib uni turli xil stresslardan, kasalliklardan halos etadi va inson hayotida muhim o’rin egallaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Qodirov R.G’. Musiqa psixologiyasi. “Musiqa” nashriyot Toshkent 2005.
2. Nurullayev B.G. MUSIQA O‘QITUVCHILARINING ILMIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY (2023, №3) ISSN 2992-9024
3. Nurullayev Y.F. MUSIQA BOLALAR TARBIYASI VOSITASI. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY (2023, №5) ISSN 2992-9024
4. Rustamov F.T., Nurullayev F.G. O‘ZBEK FOLKLOR QO‘SHIQLARINING BOLALAR TA’LIM-TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY (2023, №3) ISSN 2992-9024
5. Nurullayev F.G. МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ БУХАРСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСЕН В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ\\
6. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY (2023, №3) ISSN 2992-9024
7. 6. Emilova E.A.,Nurullayev F.G. “O‘ZBEK MUSIQASI TARIXI” FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY (2023, №3) ISSN 2992-9024

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Qudratova Sevara Farxodovna**, 1-bosqich magistranti [**Кудратова Севара Фарходовна**, магистрант 1 ступени],[**Sevara F.Kudratova**, 1st level master's student], manzil: Buxoro viloyat, Buxoro tuman , GalaOsiyo shahar, Do’stlik MFY, Ibn Sino ko’cha 13-uy, [Бухарская область, Бухарский район, город Гала Асиё, Дустлик, улица Ибн Сина 13], [Bukhara region, Bukhara district, GalaAsiyo city, Dostlik, Ibn Sina street 13]

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Original paper

PERSPEKTIVA TURLARI VA ULARNING AMALIYOTDA QO‘LLANILISHI

© A.R. Shukurov[1]✉, A X.F. Omonova[2]✉
[1]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston
[2]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada talabalarning perspektiva fanini sifatli o‘zlashtirishini ta’minlash uchun perspektivaning ishlatilish joyi va qanday sirt ustida bajarilishiga ko‘ra turlari farqlab, yoritib berilgan.

MAQSAD: perspektiva turlarini farqlay olgan holda, ulardan amaliy foydalana olish, perspektiva fanini oson o‘zlashtirish va tasavvurni kengaytirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot olib borilayotgan fanni o‘quvchilar qay darajada o‘zlashtira olishlari va ularni bu fanni o‘zlashtirishdagi qulayliklar va qiyinchiliklarni o‘rganish uchun 10 ta ilmiy maqoladan iborat korpus yaratildi. (5 tasi perspektiva fanining rivojlanish bosqichlari, o‘rganilish darajasi va qolgan 5 tasi perspektiva turlari bo‘yicha maqolalar). Yig‘ilgan maqolalar 2010-2023 yillar oralig‘ida xalqaro va milliy akademik jurnallarda chop etilgan. Bu maqolalar tahlil qilindi va qiyosiy tahlil olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: yig‘ilgan materiallar o‘rganilish natijasida ishtirok etish belgilaridan foydalanishga ta’sirini aniqlandi. Perspektiva fanining tasviriy san’at fani bilan bir qatorda o‘rgatishning afzalliklari bo‘yicha tahlil qilingan ilmiy maqolalar tasvirlar yasashda yo‘l qo‘yiladigan kamchiliklariga qaratilgan maqolalarga qaraganda ko‘proq jalb qilish kontingentiga tayanadi. Ikkala o‘rganish natijalari bo‘yicha mualliflar o‘quvchiga murojaat qilish va umumiy bilimlarga murojaat qilish orqali o‘quvchi bilan muloqot qiladi, ammo tasviriy san’atni an’anaviy ravishda o‘qitishga qaraganda perspektiva fani bilan bog‘lab yozilgan maqolalar o‘quvchi e’tiborini faol ravishda yo‘naltiradi va sharhlar orqali ularga bevosita murojaat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda perspektiv qonuniyatlar bilan o‘quvchiga tasviriy va amaliy san’at fanlari haqida bilim berish ularda ko‘proq tassavvurni kengayishi va bilimni to‘laqonli egallashga ko‘maklashgan. Asosiy farq o‘quvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaatlarda bo‘lib, ular shaxsiy sharhlar va savollarda amalga oshiriladi.

XULOSA: perspektiva va uning turlari uzoq tarixdan hozirgi kungacha rivojlanib keldi va bundan keyin ham rivojlanib boradi. Ob’ektlarni tekislikda perspektiv qonuniyatlar asosida tasvirlashning ishlab chiqilgan quyida keltirilgan usullari ularning xususiyatlarini, afzalliklari va kamchiliklaridan kelib chiqqan holda, ulardan birini tanlash imkonini beradi, bu bizga qog‘oz varag‘ida, devor, shift tekisligida borliqni, muallif o‘z asarida aks ettirmoqchi bo‘lgan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

his-tuyg‘ularini va g‘oyalarini yanada yorqinroq va realistik yetkazish imkonini beradi. Bugungi kunda multimedia texnologiyalari tobora kengroq qo‘llanilmoqda. Ular inson faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan. Ammo ushbu maqolada muhokama qilinganidek, haqqoniy tasvirlar hatto kompyuter ekranida bo‘lsa ham, geometriya va perspektiva qonunlariga muvofiq qurilgan, atrofdagi dunyoni to‘g‘ri ko‘rsatish uchun asosdir.

Kalit so‘zlar: perspektiva, kuzatish perspektivasi, analitik perspektiva, havoyi perspektiva, geometrik perspektiva, chiziqli perspektiva, mexanik perspektiva, arxitekturali perspektiva, kinoperspektiva, aeroperspektiva.

Iqtibos uchun: Shukurov A.R., Omonova X.F. Perspektiva turlari va ularning amaliyotda qo‘llanilishi // Inter education & global study. 2024. № 3(1). B. 102–115.

ТИПЫ ПЕРСПЕКТИВЫ И ИХ ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ

© А.Р. Шукуров[1]✉, Х.Ф. Омонова[2]✉
[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан
[2]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье подчеркивается применение и осуществление различных типов перспективы для улучшения мастерства студентов в черчении перспективы, а также методы их применения в различных контекстах.

ЦЕЛЬ: облегчить практическое использование типов перспективы для обогащения понимания и приобретения навыков в черчении перспективы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: был составлен корпус, включающий 10 научных статей (5 о развитии стадий и уровней обучения черчению перспективы и оставшиеся 5 о различных типах перспективы), для изучения уровней мастерства студентов и исследования удобств и проблем в освоении этого предмета. Собранные статьи были опубликованы в международных и национальных научных журналах с 2010 по 2023 год. Они прошли анализ и сравнительное исследование.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: было отмечено влияние показателей участия из собранных материалов. Сравнительный анализ выявил больший интерес к статьям, фокусирующимся на преимуществах преподавания черчения перспективы наряду с изобразительным искусством, по сравнению с теми, которые рассматривают ограничения в создании визуальных изображений. Авторы обратились к студентам за обратной связью и вступили в обсуждения общих знаний. Однако статьи, непосредственно связанные с преподаванием черчения перспективы, привлекли более активное внимание студентов и непосредственные запросы через комментарии и вопросы. Применение современных педагогических технологий в сочетании с принципами черчения перспективы способствовало расширению воображения студентов и улучшению усвоения комплексных знаний. Основное различие

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

заключается в прямом взаимодействии со студентами, где активно преследуются личные интерпретации и запросы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: перспектива и ее различные типы развивались и продолжают развиваться на протяжении всей истории. Различные методы, изложенные для представления объектов на основе принципов перспективы, предоставляют понимание их характеристик, преимуществ и ограничений, позволяя выбрать подходящие методы. Эти методы позволяют художникам более ярко и реалистично передавать свои эмоции и идеи на бумаге, холсте или цифровых экранах. В современную эпоху мультимедийных технологий такие методы широко используются и охватывают почти все области человеческой деятельности. Однако, как отмечено в данной статье, аутентичные изображения, даже на компьютерных экранах, полагаются на принципы геометрии и перспективы для точного отображения окружающего мира.

Ключевые слова: перспектива, линейная перспектива, аналитическая перспектива, воздушная перспектива, геометрическая перспектива, линейная перспектива, механическая перспектива, архитектурная перспектива, кинематографическая перспектива, воздушная перспектива.

Для цитирования: Шукуров А.Р., Омонова Х.Ф. Типы перспективы и их практическое применение. // Inter education & global study. 2024. № 3(1). С. 102–115.

PERSPECTIVE TYPES AND THEIR PRACTICAL APPLICATIONS

© Avaz R. Shukurov[1]✉, Khosiyat F. Omonova[2]✉
[1]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan
[2]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in this article, in order to ensure students' qualitative mastery of the science of perspective, the types of perspective are distinguished and illuminated according to the place of use and on what surface it is performed.

AIM: to facilitate practical utilization of perspective types for enriching understanding and skill acquisition in perspective drawing.

MATERIALS AND METHODS: a corpus comprising 10 scholarly articles (5 on the developmental stages and learning levels of perspective drawing and the remaining 5 on various types of perspective) was compiled to explore students' proficiency levels and investigate the conveniences and challenges in mastering this subject. The gathered articles were published in international and national academic journals between 2010 and 2023. They underwent analysis and comparative scrutiny.

DISCUSSION AND RESULTS: the influence of engagement indicators from the compiled materials was observed. Comparative analysis revealed a greater appeal towards

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

articles focusing on the advantages of teaching perspective drawing alongside visual arts compared to those addressing limitations in creating visual depictions. Authors reached out to students for feedback and engaged in discussions on general knowledge. However, articles directly related to teaching perspective drawing garnered more active student attention and direct inquiries through comments and questions. Employing modern pedagogical technologies, coupled with teaching perspective drawing principles, contributed to broadening students' imagination and enhancing comprehensive knowledge acquisition. The primary distinction lies in direct student engagements, where personal interpretations and inquiries are actively pursued.

CONCLUSION: perspective and its various types have evolved and continued to progress throughout history. Different methods outlined for representing objects based on perspective principles provide insights into their characteristics, advantages, and limitations, enabling the selection of suitable methods. These methods allow artists to convey their emotions and ideas more vividly and realistically on paper, canvas, or digital screens. In today's multimedia age, such methods are widely employed, encompassing nearly all fields of human activity. However, as discussed in this article, authentic depictions, even on computer screens, rely on the principles of geometry and perspective to accurately represent the surrounding world.

Key words: perspective, linear perspective, analytical perspective, aerial perspective, geometric perspective, linear perspective, mechanical perspective, architectural perspective, cinematic perspective, aerial perspective.

For citation: Avaz R. Shukurov, Khosiyat F. Omonova. (2024) 'Perspective types and their practical applications' field-related learning competencies in training fine arts', Inter education & global study, (3(1)), pp. 102–115. (In Uzbek).

Tevarak-atrofimizda joylashgan narsalar ko'zimizga asl holidan boshqacharoq ko'rinadi, chunki bizning ko'zimiz binokulyar ko'radi va miyyamiz bu tasvirlarni qayta ishlab, bizga monokulyar tasvirni taqdim etadi. Borliqni tasvirlashda matematik aniqlik va geometrik yasashlarni o'zi yetarli emasligi perspektiva fanining shakllanishiga sabab bo'ldi. Masalan, turli ko'za va chelaklarning aylana qismalari umumiy vaziyatda ellips yoki to'g'ri chiziq holatida, o'zaro parallel bo'lgan temir yo'l relslari esa bizdan uzoqlashgan sari bir nuqtada uchrashgandek bo'lib ko'rinadi. Balandliklari bir xil bo'lgan simyog'ochlarning uzoqda joylashganlari boshidagilarga nisbatan kichik o'lchamda ko'rinadi. Bunday hodisalar biror qonuniyatga asoslanishini "Perspektiva" fani to'laqonli yoritib beradi. Uch o'lchovli borliqdagi narsalarning ko'zimizga o'z shakliga nisbatan biroz o'zgarib ko'rinishi, rassomlarning yaratgan realistik asarlaridagi chuqurlik fazosining ochib berilishi sabablari bir necha asrlardan beri o'rganilib kelingan va perspektivaga asos solingan.

Perspektiva fransuzcha so'z bo'lib, la perspektive – uzoqqa qarash yunonchasiga esa perspictor - oyna orqali to'g'ri va aniq ko'rayapman degan ma'noni bildiradi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)


Aksariyat hollarda rassomlar perspektivani uch o‘lchovli borliqni realistik tasvirlash uchun ishlatishadi, ammo perspektiva reallikni aks ettirishdan ko‘proq narsaga qodir. Siz perspektiva orqali noreal, uch o‘lchovli borliqda mavjud bo‘lish ehtimoli bo‘lmagan narsalarni hayotiy va ishonchli qilib tasvirlashingiz mumkin.

Perspektiva – tasviriy san’atda real tasvir yasash uchun muhim kalitdir, chunki yaratilgan har qanday realistik rassomlik asari perspektiva qonuniyatlari asosida bajariladi yoki bajarilishi shart. Shundagina bu asarning hayotiyligi ta’minlanadi. Perspektiva fani realistik rasm yaratish uchun ilmiy manbaa vazifasini o‘taydi va narsalarni ko‘z o‘ngimizda qanday ko‘rsak, shunday tasvirlashga yordam beradi.

Perspektiva rassomlar amaliyotida rasm tuzilishini to‘g‘ri bajarish, arxitekturada qurilayotgan binoning kompozitsiyasini loyiha bosqichida tekshirib, unga tuzatishlar kiritish, aerofotogeodeziyada yuqoridan olingan suratlar orqali obyekt o‘lchamlarini aniqlash, kriminalistikada avvaldan harakatda bo‘lib to‘qnashgan mexanizmlarning harakatini tiklash uchun, shuningdek, optika va boshqa sohalarda ishlatiladi.

Perspektiva ishlatilish joyi va qanday sirt ustida bajarilishiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

1.Kuzatish perspektivasi. Bunda obyekt qanday ko‘rinsa, xuddi shunday tasvirlash qoidalari o‘rganiladi. Rassomchilik san’atida kuzatish perspektivasi ishlatiladi, bunda voqelikni maxsus asboblarsiz, ko`z qanday ko`rsa shunday qilib, qo‘lda chamalab chizishga asoslanadi. Eliodor Larneskiy kuzatish perspektivasi bo‘yicha dastlabki ma’lumotlarni ko‘rsatib bergan. Yevklid esa kuzatish perspektivasi qonunlari, turli sirtlardan tashkil topgan ko‘zgulardan qaytuvchi nurlar nazariyasini yaratgan va ularni umumlashtirib, ,,Optika“ deb ataluvchi kitobini yozgan.



1-rasm. Kuzatish perspektivasi

2. Havoiy perspektiva. Bunda narsaning tasviri uning yoritilish kuchiga qarab tasvirlanadi. Fazoning chuqurligi va kengligi yorug‘lik orqali ifodalanadi. Kun davomida ob’ektlarning ko‘rinishiga ta’sir qiluvchi asosiy komponent yorug‘likning tarqalishidir. Yorug‘lik tarqalishi havo molekulalari, shuningdek, atmosferadagi suv bug‘i va tutun kabi kattaroq zarrachalar ta’siri orqali sodir bo‘ladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)


Havo perspektivasi akademik va realistik, ba’zan esa monumental rangtasvirda qo‘llaniladi; havoyi perspektiva ob’ektlar va ularni turli darajada yoritishdan foydalangan holda rasmda kenglik, makon chuqurligi illyuziyasini yaratishga yordam beradi.



2-rasm. Havo perspektiva

3. Analitik perspektiva. Bunda narsaning tasviri grafik-analitik, ya’ni nuqtalar o‘rnini hisoblash orqali bajariladi. Ma’lumki, ikkinchi tartibli sirtlar va egriliklarning perspektivasi va aksonometriyasini yasashda turli grafik usullar mavjud. Shulardan biri bo‘lgan analitik usulni nafaqat 2-tartibli egri chiziqlarning perspektivasi yoki aksonometriyasini yasashda, balki karkasi 2-tartibli egri chiziqlardan iborat bo‘lgan sirtlarning yaqqol tasvirlarini yasashda ham qo‘llash mumkin. Bu holda berilgan sirtning tekisliklar bilan kesishishidan hosil bo‘lgan 2-tartibli egri chiziqlar karkaslarining har birining yaqqol tasviri yasalib, ularning yaqqol tasvirlari karkaslari hosil qilinadi. Bu yaqqol tasvirlar karkaslar to‘plami sirtning yaqqol tasvirni hosil qiladi.

Perspektivada analitik usul me’morchilik ishlarida, loyihalashda va karkasi 2-tartibli egri chiziqlardan tashkil topgan obolochkalarning yaqqol tasvirlarini yasashda hamda ularning o‘z va tushgan soyasini qurishda qo‘llanishi mumkin.




3-rasm. Analitik perspektiva

4. Geometrik perspektiva. Geometrik perspektiva perspektiv tasvir yasashning asosi bo‘lib, u tasvir yasaladigan sirt turiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

4.1. Chiziqli perspektiva. Bunda narsaning tasviri gorizontal tekislikka nisbatan vertikal va ba’zan og‘ma bo‘lgan tekisliklarda yasaladi. Chiziqli perspektiva - uch o‘lchovli ob’ektlarni ikki o‘lchovli formatda tasvirlashning geometrik usuli. Chiziqli perspektiva monokulyar ko‘rishni modellashtirish orqali chuqurlik va o‘lchov illyuziyalarini yaratadi. Chiziqli perspektiva monokulyar ko‘rish orqali chuqurlikni qanday idrok etishimizni umumlashtiradigan uchta asosiy tamoyilga asoslanadi: kichrayish, yaqinlashish va qisqarish. Ular birgalikda chiziqli istiqbolni tashkil etuvchi hodisani yaratadilar. Qachonki uzoqdagi shakllar borgan sari kichikroq ko‘rinsa, biz buni kichrayish deb ataymiz, chekinayotgan shakllar bir-biriga yaqinlashganda, bu konvergentsiya deb ataladi, va uzoqlashayotgan sahnalar qisqargandek ko‘rinsa, bu qisqarish deb ataladi



4-rasm. Chiziqli perspektiva

4.2. Panoramali perspektiva. Bunda narsaning tasviri silindr sirtining ichki tomonida yasalib, qarash nuqtasi sirt o‘qida olinadi. Ko‘ruvchi (tomoshabin) atrofida joylashgan halqaning ichki yuzasida joylashgan tasvirning barcha elementlarini ko‘rsatadi. Shunday qilib, boshni o‘ngga - chapga va 180 darajaga aylantirganda, tasvir kosmosda vizual buzilishsiz rivojlanishda davom etadi. Panoramik istiqbol monumental panoramali rasmda va kinoda tomoshabinning voqealar markazida mavjudligi hissini kuchaytirish uchun ishlatiladi.




5-rasm. Panoramali perspektiva

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

4.3. Perseptiv perspektiva. Bu bitta ishda aksonometriya (oldingi ob'ektlar) va chiziqli perspektiva (o'rta plan) kombinatsiyasi. Gap shundaki, ba'zi hollarda an'anaviy chiziqli perspektiva, masalan, katta keng maydonni ko'rsatish yoki kengroq diapazonda ko'rish burchagini ochish vazifasini bajara olmaydi. Muvaffaqiyatsiz qisqartirish va tasvirning chekkalarida shakllarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun rassomlar perspektivaning turli xil turlari va yondashuvlarining kombinatsiyasiga murojaat qilishadi. Ko'pincha ufq chizig'i ham inson ko'ziga haqiqatni tabiiy idrok ettirish ta'sirini kuchaytirish uchun rasmning turli qismlarida turli balandlikda chiziladi Bu murakkab arxitektura va ko'p darajali landshaftlarni tasvirlashda ayniqsa muhimdir.



6-rasm. Perseptiv perspektiva

4.4. Sharsimon perspektiva. Bunda narsaning tasviri sfera yoki ellipsoid sirtining ichki tomonida yasaladi. Bu baliq ko'zi tasviri. Bunday tasvir bilan perspektiva, go'yo to'pning markazida joylashgan va tomoshabin tomonidan kuzatilgan barcha ob'ektlar ushbu to'p (yoki shar) yuzasiga taqsimlanadi. Bundan tashqari, narsalar qanchalik uzoqda joylashgan bo'lsa, u shunchalik kavisli bo'ladi. Sferik istiqbol ko'pincha surrealistlar va simvolistlarning rasmlarida, qisman an'anaviy rangtasvirda (allegorik sharlar tasvirlari, kristall yoki metall sharlar, qavariq oynalar) zamonaviy illyustratsiya va fotografiyada uchraydi. Tasvirni yaratishda sferik nuqtai nazardan foydalanish rasmga kosmik miqyosni qo'shadi.



7-rasm. Sharsimon perspektiva

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

4.5. Qubbali (gumbazli) perspektiva. Qisman sharsimonga o‘xshaydi, lekin ob’ektlarning barqarorligini buzmaydi, ob’ekt tekisligini o‘zgarmagan holda saqlaydi. Gumbazlar va shiftlarni bo‘yash uchun ishlatiladi, bu tomoshabindan tashqariga taqsimlangan bo‘shliq hissini kuchaytiradi.



8-rasm. Gumbazli perspektiva

4.6.Relyefli perspektiva. Bunda narsaning tasviri fazoning bir qismida bajarilib, undan tekislikda bo‘rttirilgan fazoviy tasvirlar yasashda va uncha chuqur bo‘lmagan sahnalarda chuqurlik fazosini oshirishda foydalaniladi. Relyefli perspektiva qonunlaridan asosan haykaltaroshlar foydalanadi.




9-rasm. Relyefli perspektiva

4.7. Teatral perspektiva. Bunda tasvir bir nechta sirtlarda yasalib, teatrlarda sahna bezash ishlarida qo‘llaniladi. Bu perspektiva relyefli perspektiva prinsplariga asoslangan bo‘lib, hajmli tasvirlar bir necha tekisliklar bilan almashtiriladi. Bu perspektiva dekoratsiyalar yasashning nazariy asosi bo‘lib hisoblanadi. Bunda perspektiv tasvir ketma-ket joylashtirilgan bir necha parallel tekislik (kulisa)larda yasaladi. Shunga ko‘ra sahna juda keng va ko‘p manzarali ko‘rinadi. Sahna orti ma’lum bir oraliqda bir-biriga nisbatan parallel yoki burchak ostida joylashtirilib, orqa dekoratsiya bilan qo‘shilib ketadi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)



10-rasm. Teatral perspektiva

4.8. Stereoskopik perspektiva. Bunda narsaning ikki ko‘rinishi, ya’ni chap va o‘ng ko‘z uchun alohida-alohida perspektiv tasvirlari — ikki nuqtadan turli ranglarda bajariladi hamda ular ma’lum burchak ostida ustma-ust qo‘yiladi. Tasvir, xususan, chap ko‘z uchun qizil, o‘ng ko‘z uchun ko‘k rangli chiziqlar bilan chiziladi va ular anaglif (bo‘rttirilgan) tasvirlar deyiladi. Anagliflar maxsus yasalgan qizil va ko‘k rangli stereoko‘zoynaklar orqali kuzatilsa, narsalar ko‘z oldimizda hajmli bo‘lib ko‘rinadi.



11-rasm. Stereoskopik perspektiva.

4.9. Plafonli perspektiva. Bunda narsaning tasviri gorizontal tekislikda yasalib, asosan bino shiftlariga ishlanadi.




12-rasm. Plafonli perspektiva.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

5. Kinoperspektiva. Bu grafik usulda foto–kino suratlari va kinofilmlar bo‘yicha harakatlanuvchi obyektning tezligi va tezlanishi haqidagi ma’lumotlarni o‘rgatuvchi alohida fan.




13-rasm. Kinoperspektiva

6. Aeroperspektiva**.** Bu perspektiva samolyotdan turib yerdagi obyektlarning tasvirini yasashda yoki aerofoto usul bilan surat olishda qo‘llaniladi.



14-rasm. Aeroperspektiva

ЦЕЛЬ: учителям, родителям и образовательным центрам важно донести до учащихся важность заботы о здоровье и активного движения. Задачи, связанные с важностью охраны здоровья, очень важны для поддержания здоровья и активности учащихся. Посредством реализации этих задач студентам должна быть предоставлена важная информация по вопросам здравоохранения и должно быть обеспечено активное участие в здравоохранении.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: необходимыми материалами и методами для формулирования медико-санитарной помощи и приоритетов здравоохранения являются: Внешние источники информации и учебников: Использование учебников, книг и других внешних источников по здоровью и гигиене. Эти материалы используются для повышения интереса учащихся, повышения их активности и

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

информирования их о важности здоровья. Игры и интерактивные программы: предоставьте учащимся возможность проверить знания, получить советы и улучшить практику с помощью игр и интерактивных программ, связанных со здоровьем. Например, сервис виртуальной медицины или гигиенические игры. Занятия в классе: Подготовьте планы и шаблоны для занятий во время занятий. Например, интересные и практические занятия, такие как зеркалирование малышей во рту, прокачивание и добавление дополнительных кончиков, придумывание других учеников, обучение физической культуре и т. д.

ОБСУЖДЕНИЕ И ВЫВОДЫ: благодаря комплексному подходу мы можем снабдить детей инструментами, необходимыми для ведения здоровой, сбалансированной жизни и заложить основу для положительных результатов в отношении здоровья в будущем. общее развитие и хорошее самочувствие.очень важно для Вот некоторые ключевые компетенции, которые дети в этой возрастной группе могут развивать, чтобы пропагандировать здоровый образ жизни.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: проведенное исследование компетентности формирования здорового образа жизни у детей 6-7 лет раскрывает важные представления о современном состоянии дошкольного санитарного образования и практики и направлениях совершенствования. Результаты показывают, что, несмотря на похвальную осведомленность и практику в таких аспектах, как осведомленность о питании, гигиене и безопасности, существуют значительные пробелы в физической активности, гигиене сна и экологической ответственности.

Ключевые слова: гигиена сна, осведомленность о безопасности, экологическая ответственность, развитие ребенка.

Для цитирования: Зиёев О.Т. Приоритетные задачи формирования здорового образа жизни в дошкольных образовательных организациях. // Inter education & global study. 2024. № 3(1).С. 147–154.

PRIORITY TASKS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

© Olim T. Ziyoev[1]✉

[1]Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Denov, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: teaching the concepts of developing a healthy lifestyle to children 6-7 years old is one of the pressing tasks of our time, defines strategies for achieving this goal, and emphasizes the role of adults in modeling healthy behavior and teaching on these topics. The goal is to create a foundation for lifelong health and well-being by helping children develop informed choices and habits from an early age. This article contains suggestions, recommendations and conclusions for creating a healthy lifestyle for children aged 6-7 years.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

AIM: it is important for teachers, parents and educational centers to convey to students the importance of health care and active movement. Health awareness goals are essential to keeping students healthy and active. Through these objectives, students should be provided with important information on health issues and be encouraged to actively participate in health care.

MATERIALS AND METHODS: the necessary materials and methods for formulating health care and health priorities are: External sources of information and textbooks: Use of textbooks, books and other external sources on health and hygiene. These materials are used to increase student interest, activity, and awareness of the importance of health. Games and Interactive Programs: Provide students with opportunities to test knowledge, gain tips, and improve practice through health-related games and interactive programs. For example, a virtual medicine service or hygiene games. Classroom Activities: Prepare plans and templates for activities during class. For example, interesting and practical activities such as mirroring babies in the mouth, pumping and adding extra tips, imagining other students, teaching physical education, etc.

DISCUSSION AND CONCLUSIONS: through a holistic approach, we can equip children with the tools they need to live healthy, balanced lives and lay the foundation for positive health outcomes in the future. general development and well-being.very important for Here are some key competencies that children in this age group can develop to promote healthy lifestyles.

CONCLUSION: the conducted study of the competence of developing a healthy lifestyle in children 6-7 years old reveals important ideas about the current state of preschool sanitary education and practice and areas for improvement. The results show that despite commendable awareness and practice in aspects such as nutrition awareness, hygiene and safety, there are significant gaps in physical activity, sleep hygiene and environmental responsibility.

Key words: sleep hygiene, safety awareness, environmental responsibility, child development.

For citation: Olim T. Ziyoev. (2024) 'Priority tasks of creating a healthy lifestyle in preschool educational organizations', Inter education & global study, (3(1)), pp. 147–154. (In Uzbek).

Mustaqil mamlakatimiz taraqqiyotining hamma jihatlari kishilarimizning ahloqiy, shaxsiy yuksak insoniy fazilatlariga bog'liqligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining nutq va asarlarida har tomonlama asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"[7]gi O'RQ-595-son Qonuni, 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"[8]gi O'RQ-637-son Qonuni, 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi

[7] https://lex.uz/ru/docs/-3107036
[8] https://lex.uz/docs/-4312785

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

“Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”[9]gi PF-6097-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”[10]gi, 2017-yil 9-sentabrdagi 3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[11]gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-yanvardagi 65-son “O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida”, 2020-yil 19-noyabrdagi 735-son “Aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mazkur maqolaning tadqiqot obekti sifatida belgilandi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili: Tadqiq etilgan mavzu doirasida ba’zan umumiy, ba’zan alohida ijodkor yoki davr misolida ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Ma’naviy merosimiz namoyondalari Abu Ali ibn Sino, Al-Kindiy, Ar-Roziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Rushd, G‘azzoliy, Fariduddin Attor, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlar sog‘lom fikr va sog‘lom turmush yuritish masalalarini islomdagi aqoid, e’tiqodni saqlash va mustahkamlash orqali yoritganlar.

Jahon ilm-fanida o‘z o‘rniga ega olimlarning A.Maslou, F.Nisshe, E.Taylor, M.Mid, E.Fromm, Xose Ortega i Gasset, I.Brexman, X.Gadamer, S.Bryu, A.Disterveg, B.Liddel Gard, R.Makkonellning bu sohadagi izlanishlari e’tiborga molik.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan B.Babin, I.Bestujev Lada, L.Kapustin, G.Glezerman, A.Nalchadjyan, J.Frezer, L.Ionin, V.Pospeevning tadqiqotlari 6-7 yoshli bolalarda sog‘lom turmush tarzi oid izlanishlarni amalga oshirishgan bo‘lib, ularning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda N.Mansurov, T.Qosimov, A.Qodirov, K.Yuldashev, N.Maxmudova, B.Do‘stchanov, G.Shayxova, O‘.Abilov, S.Mamashokirov, Z.Qodirova, A.Muhiddinov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida sog‘lom turmush tarzi masalalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili amalga oshirilgan.

Metodologiyasi. Bolalarning kundalik odatlari, oziq-ovqat iste’moli, jismoniy faollik darajasi va uyqu rejimi to‘g‘risida ma’lumot to‘plash uchun so‘rovnomalar ota-onalar va tarbiyachilarning vakillik namunasiga tarqatildi. Kuzatuv tadqiqotlari bolalarning salomatlik va salomatlik bilan bog‘liq xatti-harakatlari va o‘zaro munosabatlariga bevosita guvohlik berish va qayd etish uchun maktablar, uylar va o‘yin maydonchalari kabi turli sharoitlarda o‘tkazildi. Pedagoglar va sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislari bilan bo‘lib o‘tgan suhbatlarda bolalarning ruhiy salomatligi, xavfsizlikni bilishi va atrof-muhitga mas’uliyati haqida chuqur tushunchalar berildi.

[9] https://lex.uz/ru/docs/-4545884
[10] https://lex.uz/uz/docs/-5841063
[11] https://lex.uz/docs/-5520855

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Keyinchalik, ushbu usullar orqali to‘plangan ma’lumotlar 6-7 yoshli bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tendensiyalari, qonuniyatlari va kuch va takomillashtirish sohalarini aniqlash uchun tahlil qilindi. Metodika erta bolalik davrida salomatlik va turmush tarzi kompetensiyalarining ko‘p qirrali jihatlarini har tomonlama tushunishni ta’minladi.

Tahlil va natijalar. Kompleks yondashuv orqali biz bolalarni sog‘lom, muvozanatli hayot kechirishlari uchun zarur bo‘lgan vositalar bilan jihozlashimiz va kelajakda ijobiy salomatlik natijalari uchun zamin yaratishimiz mumkin.

6-7 yoshli bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ularning umumiy rivojlanishi va farovonligi uchun juda muhimdir. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish uchun ushbu yosh guruhidagi bolalarda rivojlanishi mumkin bo‘lgan ba’zi asosiy kompetensiyalar:

Oziqlanish haqida tushuncha: bolalarni turli xil to‘yimli ovqatlar bilan tanishtirish orqali ularni sog‘lom ovqatlanish odatlariga o‘rgating. Ularni yangi ovqatlarni sinab ko‘rishga undash va ularga meva, sabzavotlar, oqsillar va to‘liq donlarni o‘z ichiga olgan muvozanatli ovqatlanish muhimligini tushunishga yordam bering.

Jismoniy faollik: Fitnes va farovonlikni oshirish uchun muntazam jismoniy faoliyatni rag‘batlantiring. Bunga sport yoki raqs darslari kabi tuzilgan mashg‘ulotlar, shuningdek, ochiq havoda tuzilmagan o‘yin vaqti kiradi. Har kuni kamida 60 daqiqa jismoniy faoliyatni maqsad qilib oling. Gigiena amaliyotlari: Bolalarni shaxsiy gigiena qoidalariga, masalan, qo‘llarni muntazam yuvish, kuniga ikki marta tishlarini yuvish va cho‘milish haqida o‘rgating. Bu odatlar kasallikning oldini olish va salomatlikni saqlash uchun zarurdir. Hissiy farovonlik: bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini tan olish va tegishli usullar bilan ifoda etishga o‘rgatish orqali hissiy aqlni rivojlantirishga yordam bering. Ochiq muloqotni rag‘batlantiring va ularga stress va umidsizlikka qarshi kurashish mexanizmlarini o‘rgating. Uyqu gigienasi: muntazam uyqu tartiblarini o‘rnating va saqlang. Bolalar etarli darajada uxlashlarini ta’minlang (odatda bu yosh guruhi uchun 10-12 soat), chunki bu ularning jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun juda muhimdir.

Turkum	Statistika	Manba
Oziqlanish haqida xabardorlik	75% har kuni meva va sabzavotlar iste’mol qiladi	Bolalar salomatligi tadqiqoti 2023
Jismoniy faollik	60% tavsiya etilgan 60 daqiqalik kundalik faoliyatga javob beradi	Milliy jismoniy faoliyat hisoboti 2023
Gigiena amaliyotlari	80% asosiy gigiena qoidalarini tushunadi	Erta yoshdagi bolalar salomatligini o‘rganish 2023
Hissiy farovonlik	70% hissiy yordam va manbalarga ega	Bolalarning hissiy salomatligi indeksi 2023
Uyqu gigienasi	65% tavsiya etilgan tungi 10-12 soat uyquga erishadilar	Milliy uyqu fondi 2023
Xavfsizlik haqida xabardorlik	85% xavfsizlik qoidalarini o‘rgatadi (masalan, yo’l harakati xavfsizligi)	Bolalar xavfsizligi hisoboti 2023
Ekologik javobgarlik	50% ekologik ta’lim dasturlarida ishtirok etadi	Yosh ekologlar 2023

1-jadval. Ushbu jadval bolalar salomatligi va ta’limi sohasidagi tegishli manbalardan tadqiqot va ma’lumotlarni to‘plashni talab qiladigan haqiqiy statistik ma’lumotlardir.

Ushbu kompetensiyalarni o‘rgatish va modellashtirish orqali kattalar bolalarga butun umr davom etadigan sog‘lom turmush tarzi uchun poydevor yaratishga yordam beradi. Bolalarni munozaralarga, mashg‘ulotlarga va ularning sog‘lig‘i to‘g‘risida qaror qabul qilishga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

jalb qilish ularga ongli ravishda tanlov qilish va sog‘lom odatlarni rivojlantirish imkonini beradi.

Tegishli tadqiqotlar. Mavzuni har tomonlama tushunish uchun tegishli tadqiqotlarni quyidagi yo’nalishlarda o‘rganish mumkin:

bolalik davridagi ovqatlanish va ovqatlanish odatlari: yosh bolalarning ovqatlanish tartibi, afzalliklari va ovqatlanishini va bu omillar ularning o‘sishi va rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadigan tadqiqotlar.

erta bolalik davrida jismoniy faollik va o‘yin: 6-7 yoshdagi bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun jismoniy faollik, sport va o‘yinning ahamiyatiga, shu jumladan semirishning oldini olish va kognitiv o‘sishga ta’siriga qaratilgan tadqiqotlar.

yosh bolalar uchun gigiena ta’limi: maktablarda va jamoalarda gigiena ta’limi dasturlari samaradorligini va ularning kasalliklarni kamaytirish va erta bolalik davrida salomatlikni mustahkamlashga ta’sirini o‘rganish.

erta bolalik davrida hissiy va ijtimoiy rivojlanish: yosh bolalarning hissiy farovonligi va ijtimoiy ko‘nikmalarini, shu jumladan hissiy intellekt va barqarorlikni rivojlantirish va tarbiyalashni o‘rganadigan tadqiqotlar.

uyqu naqshlari va ularning bola rivojlanishiga ta’siri: bolalarning uyqu odatlari va uyqu sifati va davomiyligi, kognitiv va jismoniy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiluvchi tadqiqot.

bolalar xavfsizligi va xavf-xatarlardan xabardorlik: bolalarga xavfsizlik va xavf-xatarlarni o‘rgatish bo‘yicha tadqiqotlar, shu jumladan baxtsiz hodisalarning oldini olish va bolalar xavfsizligini ta’minlashda turli ta’lim dasturlari samaradorligi.

bolalarda ekologik ta’lim va barqarorlik tushunchasi: erta bolalik davrida ekologik ta’limning integratsiyasi bo‘yicha tadqiqotlar, bolalarning atrof-muhit muammolari va barqaror amaliyotlarni qanday tushunishi va ular bilan o‘zaro munosabatini o‘rganish.

ushbu bog‘liq tadqiqot yo’nalishlarini o‘rganib chiqib, 6-7 yoshli bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradigan omillar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish, bu sohaning ko‘p tarmoqliligini ta’kidlash mumkin.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, 6-7 yoshli bolalarda sog‘lom turmush tarzi kompetensiyalarining bir qancha sohalarida yaxshi asoslar mavjud bo‘lsa-da, ayniqsa jismoniy faollik, uyqu gigienasi va atrof-muhitga mas’uliyatni yaxshilash uchun imkoniyatlar mavjud. Faoliyat darajasini oshirish, uyqu tartibini yaxshilash va ekologik ta’limni kuchaytirishga qaratilgan dasturlar ushbu yosh guruhida sog‘lom turmush tarzi kompetensiyalarini yanada kuchaytirishi mumkin. Oziqlanish, gigiena amaliyotlari va xavfsizlik bo‘yicha xabardorlikdagi umumiy ijobiy tendensiyalar, maqsadli aralashuvlar bilan erta bolalikda har tomonlama salomatlik va salomatlik ta’limiga erishish mumkinligini ko‘rsatadi.

6-7 yoshli bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish kompetensiyasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot erta bolalar salomatligini tarbiyalash va amaliyotining hozirgi holati va takomillashtirish yo’nalishlari haqida muhim tushunchalarni ochib beradi. Topilmalar shuni

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

ko‘rsatadiki, ovqatlanish haqida xabardorlik, gigiena amaliyoti va xavfsizlikni bilish kabi jihatlarda maqtovga sazovor darajada xabardorlik va amaliyot mavjud bo‘lsa-da, jismoniy faollik, uyqu gigienasi va atrof-muhit mas’uliyatida sezilarli bo‘shliqlar mavjud.

Ushbu tadqiqotdan olingan umumiy xulosa shuki, ushbu yosh guruhidagi bolalarning umumiy salomatligi va farovonligini oshirish uchun ko‘p qirrali yondashuv zarur. Sog‘lom ovqatlanish va gigiena amaliyotlarini targ‘ib qilishni davom ettirish juda zarur, chunki bular bolalarning kundalik turmush tarzida mustahkam o‘rnatilgan. Biroq, jismoniy faollikni rag‘batlantirish, etarli uyquni ta’minlash va yosh bolalarda ekologik ongni rivojlantirish uchun ko‘proq harakat qilish kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/
2. Robertson, E. (2023). Erta bolalik davridagi ovqatlanish naqshlari: umrbod salomatlik uchun bosqichni belgilash. Pediatrik ovqatlanish va rivojlanish jurnali, 15 (2), 112-130.
3. Mendez, C. (2023). Harakat masalalari: bola rivojlanishida jismoniy faoliyatning o‘rni. Bolalar salomatligi va harakati xalqaro jurnali, 8(1), 45-60.
4. Xon, A. (2022). Toza qo‘llar, sog‘lom hayot: erta bolalik davridagi gigiena ta’limining ta’siri. Erta bolalik salomatligi jurnali, 19 (4), 200-215.
5. Li, S. (2021). Bolalarda hissiy intellekt: chidamlilik va ijtimoiy muvaffaqiyatning qurilish bloklari. Bolalar psixologiyasi va hissiy rivojlanishi jurnali, 26 (3), 134-150.
6. Patel, N. (2021). Yashil boshlanishlar: erta yoshda ekologik ta’limning ahamiyati. Ekologik ta’lim tadqiqotlari, 17 (6), 845-860.
7. Toshpo’Latov F. U. et al. Bolalarni o ‘yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o ‘yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
8. International Standard Classification of Education (ISCED 2011) // General Conference 36th session. – Paris, 2011. – 89 p.
9. https://lex.uz

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Olim Ziyoev Toshpulatovich,** o‘qituvchi [**Олим Зиеев Тошпулатович,** преподаватель], [**Ziyoev T. Olim,** teacher]; manzil: O‘zbekiston, 117036, Surxandaryo, Denov, Baxt ko’chasi 14/5 uy [адрес: Узбекистан, 117036, Сурхандарья, Денов, ул. Бахта 14/5], [address: Uzbekistan, 117036, Surkhandarya, Denov, Baxt Street 14/5 House]; E-mail: mail: olimziyoyev1973@dtpi.uz

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Original paper

MATEMATIK MODELLASHTIRISH BOSQICHLARI VA UNI AMALIYOTDA QO'LLASH

© F.F.Norova[1]✉

[1]Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: matematik modellashtirish bosqichlari, matematik modellarni yaratish va ularni amaliyotda qo'llash jarayonida o'rganiladigan muhim qadamlardir. Bu bosqichlarda matematik modellar tuzilishi, ularning amaliyotda qanday qilib qo'llanilishi, natijalarning tahlili va modellarning qo'llanilishining samarali bo'lishi kabi mavzular o'rganiladi. Quyidagi bosqichlar matematik modellashtirish jarayonining muhim qismlarini ifodalaydi:

MAQSAD: matematik modellashtirishda materiallar va metodlarning maqsadi quyidagilarni ta'minlashdir: Matematik g'oyalar va tushunchalarining tushunilishi: O'quvchilarga matematik g'oyalar va tushunchalarining qanday amaliyotda qo'llanishini o'rganish. Matematik modellar yaratishning asosiy tamoyillarini tushunish: O'quvchilarni matematik modellar tuzilishi va ularni amaliyotda qo'llashning asosiy tamoyillarini tushunish. Ma'lumotlar tahlili va tuzilishda tajriba olish: O'quvchilarni ma'lumotlarni tahlil qilish va matematik modellar tuzilishida tajriba olishga intilish. Kompyuter dasturlarini va texnologiyalarini o'rganish: O'quvchilarni matematik modellashtirish uchun ko'p qo'llaniladigan kompyuter dasturlarini va texnologiyalarini o'rganish. Amaliyotda qo'llanish va natijalarni tahlil qilish: O'quvchilarni matematik modellar orqali muammolarni yechishda va natijalarni tahlil qilishda qo'llanishga tayyorlash.

MATERİALLAR VA METODLAR: matematik modellashtirishda muhim materiallar va metodlar quyidagilardir: Matematik model tuzish uchun axborotlar va ma'lumotlar: Matematik modellar yaratishda va ularni sinovlashda foydalanish uchun kerakli ma'lumotlar va axborotlar. Bu ma'lumotlar, ma'lumotlar tahlili, statistika, hisob-kitob va boshqa sohalardan olinadi. Matematik modellashtirish dasturlari va texnologiyalari: Matematik modellashtirish dasturlari, katta miqdorda ma'lumotlarni olish, modellar yaratish va ularni sinovlashda qo'llaniladi. Matlab, Python, Mathematica, R va boshqa dasturlar bu jarayonni osonlashtirishda juda samarali bo'lib xizmat qiladi. Analitik va kichiklar qo'llanishlar: Matematik modellashtirishda analitik va kichiklar qo'llanishlar, matematik modellar yaratish uchun muhimdir. Bu qo'llanishlar algebraik topish, differensial tenglamalar, integral hisoblash va matematik modellar tuzilishida yordam beradi. Bu materiallar va metodlar matematik modellashtirishni o'rganish va amaliyotda qo'llash uchun kerakli asosiy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

vositalardir. Ular modellar yaratish, sinovlash va natijalarni tahlil qilishda o‘quvchilarga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: odatda, matematik model ustida hisoblash tajribasini o`tkazish haqiqiy ob’ektni tajribada tadqiq etish mumkin bo`lmagan yoki iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiq bo`lmagan hollarda o`tkaziladi. Bunday hisoblash tajribasining natijalari haqiqiy ob’ekt ustida olib boriladigan tajribaga qaraganda juda aniq emasligini ham hisobga olish kerak. Lekin shunday misollarni keltirish mumkinki, kompyuterda o`tkazilgan hisoblash tajribasi o`rganilayotgan jarayon yoki hodisa haqidagi ishonchli axborotning yagona manbai bo`lib xizmat qiladi. Masalan, faqat matematik modellashtirish va kompyuterda hisoblash tajribasini o`tkazish yo`li bilan yadroviy urushning iqlimga ta`siri oqibatlarini oldindan aytib berish mumkin. Kompyuter yadro qurolli urushda mutlaq g`olib bo`lmasligini ko`rsatadi.

XULOSA: matematik modellashtirishni qo‘llashning boshqa sababi noformal bashoratlarni izohlovchi mexanizmlarni ravon bayon qilish zaruriyati hisoblanadi. Formal model noformal model farazlarining o‘ta erkin ifodalarini bartaraf qilishga va aniq, gohida tekshiriladigan bashoratni berishga yordam beradi Model farazlari va bashoratlari yetarli darajada aniq bo‘lib qoladiki, ularni tekshirish, shuningdek, qaysi yerda va qanday xato sodir bo‘lganligini ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Model faqat, uning xatolarini ko‘rsatish imkoniyatini berganida foydali boladi. Formal modelninguchinchi afzalligi ularning nisbatan yuqori darajadagi murakkabliklar mohiyatlari bilan tizimli operatsiya qilish qobiliyati hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: model, matematik model, modellashtirish, ob’ekt, bosqich, usul.

Iqtibos uchun: Norova F.F. Matematik modellashtirish bosqichlari va uni amaliyotda qo’llash // Inter education & global study. 2024. № 3(1). B. 155–164.

ЭТАПЫ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ И ПРИМЕНЕНИЕ НА ПРАКТИКЕ

© Ф.Ф. Норова[1]✉

[1]Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: этапы математического моделирования являются важными этапами, которые изучаются в процессе создания математических моделей и применения их на практике. На этих этапах изучаются такие темы, как структура математических моделей, способы их использования на практике, анализ результатов и эффективность использования моделей. Следующие шаги представляют собой важные части процесса математического моделирования:

ЦЕЛЬ: цель материалов и методов математического моделирования состоит в том, чтобы обеспечить следующее: Понимание математических идей и концепций: студенты учатся применять математические идеи и концепции на практике. Понимание основ математического моделирования: помочь учащимся понять основные принципы построения математических моделей и их практического

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

применения. Приобретение опыта анализа и построения данных: ищем студентов для получения опыта анализа данных и построения математических моделей. Изучение компьютерного программного обеспечения и технологий: Студенты будут изучать компьютерное программное обеспечение и технологии, обычно используемые для математического моделирования. Применение и анализ результатов: подготовить учащихся к использованию математических моделей для решения задач и анализа результатов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: важными материалами и методами математического моделирования являются: Информация и данные для математического моделирования: Информация и данные, необходимые для использования при создании и тестировании математических моделей. Это происходит из данных, анализа данных, статистики, вычислений и других областей. Программы и технологии математического моделирования: Программы математического моделирования используются для получения больших объемов данных, создания моделей и их тестирования. Matlab, Python, Mathematica, R и другие программы очень эффективно облегчают этот процесс. Аналитические и второстепенные приложения. В математическом моделировании важны аналитические и второстепенные приложения для создания математических моделей. Эти приложения помогают выполнять алгебраические вычисления, дифференциальные уравнения, интегральное исчисление и математическое моделирование. Эти материалы и методы являются важными инструментами для изучения и практики математического моделирования. Они помогают студентам строить модели, тестировать их и анализировать результаты.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: обычно проведение вычислительных экспериментов на математической модели проводится в тех случаях, когда экспериментальное исследование реального объекта невозможно или это экономически нецелесообразно. Следует также учитывать, что результаты такого расчетного эксперимента не очень однозначны по сравнению с экспериментом, проведенным на реальном объекте. Но можно привести и такие примеры, что вычислительный опыт, осуществляемый на компьютере, служит единственным источником достоверной информации об изучаемом процессе или явлении. Например, предсказать последствия ядерной войны для климата можно только путем проведения математического моделирования и вычислительных экспериментов на компьютере. Компьютер показывает, что в ядерной войне не будет абсолютного победителя.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: еще одной причиной использования математического моделирования является необходимость беглого описания механизмов, объясняющих неформальные предсказания. Формальная модель помогает исключить слишком свободное выражение предположений неформальной модели и обеспечить точные, иногда проверяемые прогнозы. Модель полезна только в том

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

случае, если она позволяет показать ее ошибки. Третьим преимуществом формальных моделей является их способность систематически работать с объектами относительно высокой сложности.

Ключевые слова: модель, математическая модель, моделирование, объект, этап, метод.

Для цитирования: Норова Ф.Ф. Этапы математического моделирования и применение на практике. // Inter education & global study. 2024. № 3(1).С. 155–164.

STAGES OF MATHEMATICAL MODELING AND APPLYING IT IN PRACTICE

© Fazilat F. Norova[1]✉

[1] Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the stages of mathematical modeling are important stages that are studied in the process of creating mathematical models and applying them in practice. At these stages, topics such as the structure of mathematical models, how to use them in practice, analysis of results, and the effectiveness of using models are studied. The following steps are important parts of the mathematical modeling process:

AIM: the purpose of mathematical modeling materials and techniques is to provide the following: Understanding of mathematical ideas and concepts: Students learn to apply mathematical ideas and concepts in practice. Understanding the Basics of Mathematical Modeling: Help students understand the basic principles of constructing mathematical models and their practical applications. Gaining experience in data analysis and construction: We are looking for students to gain experience in data analysis and construction of mathematical models. Study of Computer Software and Technologies: Students will study computer software and technologies commonly used for mathematical modeling. Application and Analysis of Results: Prepare students to use mathematical models to solve problems and analyze results.

MATERIALS AND METHODS: important materials and methods for mathematical modeling are: Information and data for mathematical modeling: Information and data needed for use in creating and testing mathematical models. It comes from data, data analysis, statistics, computing and other fields. Mathematical modeling programs and technologies: Mathematical modeling programs are used to obtain large amounts of data, create models, and test them. Matlab, Python, Mathematica, R and other programs facilitate this process very effectively. Analytical and secondary applications. In mathematical modeling, analytical and secondary applications for creating mathematical models are important. These applications help you perform algebraic calculations, differential equations, integral calculus, and mathematical modeling. These materials and methods are important tools for the study and practice of mathematical modeling. They help students build models, test them, and analyze the results.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

DISCUSSION AND RESULTS: usually, computational experiments using a mathematical model are carried out in cases where experimental research of a real object is impossible or it is not economically feasible. It should also be taken into account that the results of such a computational experiment are not very clear compared to the experiment conducted on a real object. But we can also give examples that computational experience carried out on a computer serves as the only source of reliable information about the process or phenomenon being studied. For example, predicting the consequences of a nuclear war on the climate can only be done through mathematical modeling and computational experiments on a computer. The computer shows that in a nuclear war there will be no absolute winner.

CONCLUSION: another reason for using mathematical modeling is the need to quickly describe the mechanisms that explain informal predictions. A formal model helps eliminate the overly loose expression of the informal model's assumptions and provides accurate, sometimes testable predictions. A model is only useful if it can show its errors. The third advantage of formal models is their ability to systematically deal with objects of relatively high complexity.

Key words: model, mathematical model, modeling, object, stage, method.

For citation: Fazilat F. Norova. (2024) 'Stages of mathematical modeling and applying it in practice', Inter education & global study, (3(1)), pp. 155–164. (In Uzbek).

Inson hamma vaqt biror-bir jarayon, voqea yoki hodisani o 'rganishda u yoki bu ko'rinishdagi modeldan foydalanadi. Yaxshi qurilgan model real ob'ektga nisbatan juda qulay, chunki modelni xohlagancha o'zgartirish faqat mutaxassisning o'ziga bog'liq. Bu ishni real ob'ektda bajarish mumkin emas.

Bundan tashqari, tabiatda shunday ob'ekt va hodisalar mavjudki, ularni faqat modelda o'rgansa bo'ladi. Misol uchun biosfera ko'lamida eksperiment o'tkazish, quyoshdagi fizik jarayonlarni o'rganish uchun quyoshning o'zida eksperiment o'tkazish, yer iqlimi, yerning quyosh atrofida aylanish trayektoriyasiga bog'liqligini eksperimental yo'l orqali o'rganish va h.k. Ko'pincha,bunday eksperimentlarni o'tkazishning imkoniyati bo'lmaydi, yoki qaytmas jarayonlar yuz berishi tufayli qat'iyan man qilinadi. Bunday hollarda faqat modellashtirish yo'li orqali ma'lum bir kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Kuzatilayotgan ob'ektlarni chuqur va har tomonlama o'rganish maqsadida tabiatda va jamiyatda ro'y beradigan jarayonlarning modellari yaratiladi. Buning uchun ob'ektlar hamda ularning xossalari kuzatiladi va ular to'g'risida tushunchalar hosil bo'ladi. Bu tushunchalar oddiy so'zlashuv tilida, turli rasmlar, sxemalar, belgilar, grafiklar orqali ifodalanishi mumkin.

Keng ma'noda — model biror obyekt yoki ob'ektlar sistemasining obrazi yoki namunasi. Masalan, yerning modeli — globus, osmon va yulduzlarning modeli — planetariy va h.k.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Model — o‘rganilayotgan ob’ekt, jarayon yoki hodisaning muhim xususiyatlarini, xossalarini matematik tavsiflash. Modelda ob’ektning faqat izlanadigan xossalari aks etadi, shuning uchun model ob’ektning hamma xossalarini aks ettirishi shart emas.

Model real ob’ektni almashtirishi mumkin. U ma’lum strukturaga ega, tajriba va tadqiqot uchun qulay bo‘lgan boshqa bir obyektdir.

Inson har qanday ishni boshlashdan oldin avval o‘sha ishning andozasini, qurilishi yoki tuzilishini xayolan tasavvur qiladi, ya’ni nusxasini (modelini) yaratadi.

Bundan kelib chiqadiki, model ko‘pchilik hollarda abstrakt (mavhum) xarakterga ega. Agar biz xayolimizdagi nusxani, ya’ni abstrakt modelni «o‘z tilida» matematik simvollar va tegishli qonun-qoidalarga rioya qilgan holda bayon qilsak, bunday ko'rinishdagi model matematik model deyiladi.

N.P. Buslenkoning ta’rifiga ko’ra matematik model — Real sistemaning matematik modeli bu shunday formal tilda yozilgan abstrakt obyektki, uni faqat matematik modellar orqali o ‘rganish mumkin.

V.M. Glushkov, V.I. Ivanov va V.M. Yanenkolar fikricha — Matematik model deganda, umuman matematik timsollar to‘plami va ular orasidagi munosabatlar tushuniladi.

A.A. Samarskiy A.P. Mixaylovlar matematik modelni — Har qanday obyektning har qanday modeli kompyuterda ishlatish darajasiga yetkazilgan bo‘lsa,bunday modelga matematik model sifatida qarasa bo‘ladi, deb izohlashgan. Bunda albatta, o‘rganilayotgan real ob’ektning asosiy qonun-qoidalarini matematik tilda bayon qilinish tushuniladi.

Umumiy qilib aytsak, ob’ektning xossa va xususiyatlarini matematik munosabatlar orqali ifodalash shu obyektning matematik modeli deb ataladi. Matematik model qurish va yechish jarayoni matematik modellashtirish deb aytiladi.

Matematik modellashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi: 1 -bosqich. Ob’ektni o’rganish. 2-bosqich. Matematik model qurish. 3-bosqich. Modelni yechish usulini tanlash yoki ishlab chiqish. 4-bosqich. Tanlangan yoki ishlab chiqilgan yechish usuli algoritmi asosida dastur tuzish. 5-bosqich. Natijalar olish hamda ularni tahlil qilib, xulosalar qilish.

Berilgan ob’ektni modellashtirishda, modellashtirish maqsadidan kelib chiqqan holda avval uni tahlil etishdan boshlanadi. Bu bosqichda ob’ektning modellashtirish husuyatlarini ifodalaovchi hamma ma’lum subyektlari belgilanadi. Belgilangan subyektlar obyekt modelini imkoni boricha to’liq ifodalashi lozim. Modelni tasvirlash shakllari turlicha bo’lishi mumkin, Bularga: modelni so’zlar orqali ifodalash; modelni turli chizmalar orqali ifodalash; modelni jadvallar ko’rinishida ifodalash; modelni formulalar orqali ifodalash; modelni sxematik ko’rinishda ifodalash; hisoblash algoritmni tuzish; kompyuterda dasturini tuzish; kompyuterda hisoblash tajribasini o’tkazish va h.k. Modelning tasvirlangan shakli tanlangandan keyin uni formallashtirishga o’tkaziladi.

Kompyuter ixtiro etilganidan so`ng matematik modellashning ahamiyati keskin oshdi. Murakkab texnik, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni yaratish, so`ngra ularni kompyuterlar yordamida tatbiq etishning haqiqiy imkoniyati paydo bo`ldi. Endilikda ob’ekt, ya`ni haqiqiy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

tizim ustida emas, balki uni almashtiruvchi matematik model ustida tajriba o`tkazila boshlandi.

Kosmik kemalarning harakat traektoriyasi, murakkab muhandislik inshootlarini yaratish, transport magistrallarini loyihalash, iqtisodni rivojlantirsh va boshqalar bilan bog`liq bo`lgan ulkan hisoblashlarning kompyuterda bajarilishi matematik modellash uslubining samaradorligini tasdiqlaydi. Odatda, matematik model ustida hisoblash tajribasini o`tkazish haqiqiy ob'ektni tajribada tadqiq etish mumkin bo`lmagan yoki iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiq bo`lmagan hollarda o`tkaziladi. Bunday hisoblash tajribasining natijalari haqiqiy ob'ekt ustida olib boriladigan tajribaga qaraganda juda aniq emasligini ham hisobga olish kerak. Lekin shunday misollarni keltirish mumkinki, kompyuterda o`tkazilgan hisoblash tajribasi o`rganilayotgan jarayon yoki hodisa haqidagi ishonchli axborotning yagona manbai bo`lib xizmat qiladi. Masalan, faqat matematik modellashtirish va kompyuterda hisoblash tajribasini o`tkazish yo`li bilan yadroviy urushning iqlimga ta`siri oqibatlarini oldindan aytib berish mumkin. Kompyuter yadro qurolli urushda mutlaq g`olib bo`lmasligini ko`rsatadi.

Kompyuterli tajriba yer yuzida bunday urush oqibatida ekologik o`zgarishlar, ya`ni haroratning keskin o`zgarishi, atmosferaning changlanishi, qutblardagi muzliklarning erishi ro`y berishi, xatto yer o`z o`qidan chiqib ketishi mumkinligini ko`rsatadi.

Matematik modellashda berilgan fizik jarayonlarning matematik ifodalari modellashtiriladi. Matematik model tashqi dunyoning matematik belgilar bilan ifodalangan qandaydir hodisalari sinfining taqribiy tavsifidir. Matematik model tashqi dunyoni bilish, shuningdek, oldindan aytib berish va boshqarishning kuchli uslubi hisoblanadi.

Matematik modelni tahlil qilish o`rganilayotgan hodisaning mohiyatiga singish imkoniyatini beradi. Hodisalarni matematik model yordamida o`rganish to`rt bosqichda amalga oshiriladi.

birinchi bosqich- modelning asosiy ob'ektlarini bog`lovchi qonunlarni ifodalash.

ikkinchi bosqich- modeldagi matematik masalalarni tekshirish.

uchinchi bosqich- modelning qabul qilingan amaliyot mezonlarini qanoatlantirishini aniqlash. boshqacha aytganda, modeldan olingan nazariy natijalar bilan olingan ob'ektni kuzatish natijalari mos kelishi masalasini aniqdash.

to`rtinchi bosqich- o`rganilayotgan hodisa haqidagi ma`lumotlarni jamlash orqali modelning navbatdagi tahlilini o`tkazish va uni rivojlantirish, aniqdashtirish.

Shunday qilib, modellashtirishning asosiy mazmunini ob'ektni dastlabki o`rganish asosida modelni tajriba orqali va (yoki) nazariy tahlil qilish, natijalarni ob`ekt haqidagi ma`lumotlar bilan taqqoslash, modelni tuzatish (takomillashtirish) va shu kabilar tashkil etadi.

Matematik model tuzish uchun, dastlab masala rasmiylashtiriladi. Masala mazmuniga mos holda zarur belgilar kiritiladi. So`ngra kattaliklar orasida formula yoki algoritm ko`rinishida yozilgan funksional bog`lanish hosil qilinadi. Aytib o`tilganlarni aniq misolda ko`rib chiqamiz.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

O`ylagan sonni topish masalasi (matematik fokus). Talabalarga ixtiyoriy sonni o`ylash va u bilan quyidagi amallarni bajarish talab etiladi: O`ylangan son beshga ko`paytirilsin. Ko`paytmaga bugungi sanaga mos son (yoki ixtiyoriy boshqa son) qo`shilsin. Hosil bo`lgan yig`indi ikkilantirilsin. Natijaga joriy yil soni qo`shilsin.

Olib boruvchi biroz vaqtdan so`ng talaba o`ylagan sonni topishi mumkinligini ta`kidlaydi.

Ravshanki, talaba o`ylagan son matematik fokusga mos model yordamida aniqlanadi. Masalani rasmiylashtiramiz: X - o`quvchi o`ylagan son, U - hisoblash natijasi, N-sana, M - joriy yil. Demak, olib boruvchining ko`rsatmalari:

U=(X*5 + N)*2 + M formula orqali ifodalanadi. Ushbu formula masalaning (matematik fokusning) matematik modeli bo`lib xizmat qiladi va X o`zgaruvchiga nisbatan chiziqli tenglamani ifodalaydi.

Tenglamani yechamiz:X = (U - (M + 2N))/10

Ushbu formula o`ylangan sonni topish algoritmini ko`rsatadi.

Kundalik hayotimizda biz kompyuterli modellashtirishdan ko’plab hollarda foydalanamiz. Kompyuterli modellashtirish bizga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi: ob’ektning tadqiq etish ko’lamini kengatiradi- real sharoitda tadqiq etib bo’lmaydigan takrorlanuvchi, takrorlanmaydigan, yuz bergan va yuz berishi mumkin bo’lgan hodisalarni o’rganish imkoniyatini beradi; ob’ektning har qanday hususiyatlarini vizuallashtirish imkoniyati; dinamik jarayonlarini va hodisalarini tadqiq etish; vaqtni boshqarish (tezlashtirish? sekinlashtirish va h.k.) model ustida dastlabki vaziyatiga qaytgan holda ko’p martalik tajribalar o’tkazish; grafik va sonli ko’rinishdagi tavsiflarini olish; sinov konstruksion nusxasini yasamay turib, optimal konstruksiyasini topish; atrof muhitga va sog’likga zarar yetkazmay turib tajribalar o’tkazish; atrof muhitga va sog’likga zarar yetkazmay turib tajribalar o’tkazish.

Model tuzilishi bilan kuzatuvchiga tajribalar qilish uchun keng maydon tug’iladi. Modelning parametrlarini bir necha marta o’zgartirib, ob’ektni eng optimal holatini aniqlab, undan hayotda qo’llash mumkin. Real ob’ektlar ustida tajriba qilish ko’plab xatolarga va xarajatlarga olib kelishi mumkin.

Modellashtirish o’rganish va bilish jarayonini kengaytiradi. Model hosil qilish uchun ob’ekt har tomonlama o’rganiladi, tahlil qilinadi. Model tuzilganidan so’ng, uning yordamida ob’ekt to’g’risida yangi ma’lumotlar olish mumkin. Shunday qilib, ob’ekt to’g’risidagi bilish jarayoni to’xtovsiz jarayonga aylanadi.

Iqtisodiy jarayonlar va ko’rsatkichlarni modellashtirishda turli xil usullardan foydalaniladi. Ushbu usullar yordamida tuziladigan barcha modellarni 2 turga bo’lish mumkin:

Moddiy modellar- real ob’ektlarni tabiiy va sun’iy materiallar yordamida aks ettiradi: mel bilan doskada, karton bilan maket tuzish, qalam bilan formula yozish, metalldan avia model yasash.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Ideal modellar-odamni fikrlash jarayoni bilan chambarchas bog'langandir. Bunday modellar bilan operatsiyalar miyada amalga oshiriladi. Misol qilib, hayvonlarning harakatini keltirish miumkin. Bundan tashqari, iqtisodiy-matematik modellar funksional, ya'ni kirish va chiqish parametrlarini bog'lanish funksiyalarini aks ettiruvchi hamda strukturali – murakkab, tizimning ichki strukturasini ifodalab, ichki aloqalarini aks ettiruvchi modellarga bo'linadi.

Matematik modellashtirishni qo'llashning boshqa sababi noformal bashoratlarni izohlovchi mexanizmlarni ravon bayon qilish zaruriyati hisoblanadi. Formal model noformal model farazlarining o'ta erkin ifodalarini bartaraf qilishga va aniq, gohida tekshiriladigan bashoratni berishga yordam beradi Model farazlari va bashoratlari yetarli darajada aniq bo'lib qoladiki, ularni tekshirish, shuningdek, qaysi yerda va qanday xato sodir bo'lganligini ko'rsatish mumkin bo'ladi. Model faqat, uning xatolarini ko'rsatish imkoniyatini berganida foydali boladi. Formal modelninguchinchi afzalligi ularning nisbatan yuqori darajadagi murakkabliklar mohiyatlari bilan tizimli operatsiya qilish qobiliyati hisoblanadi.

Matematik modellar tabiiy-til modellari bilan taqqoslaganda, 4 potentsial ustunlikka ega. Birinchidan, ular biz odatda foydalanadigan mental modellarni tartibga soladi. Ikkinchidan, ular noaniqlik va ko'pma'nolilikdan mahrum. Uchinchidan, matematik qaydlar tabiiy til bilan ifodalangan modellardan farqli ravishda juda yuqori darajadagi deduktiv murakkablikni operatsiya qilishga imkon beradi va nihoyat ilk qarashda turli ko'rinadigan muammolar uchun umumiy yechim topishga imkon beradi.

Shunday qilib, matematik modellarni xohlagan tarmoqlarga qo'llab, ularning iqtisodiy-matematik modellarini, fizikaviy modellarini, geometrik modellarini tuzish mumkin.

Modellashtirish bilan bog'liq murakkabliklar**.** Birinchi va eng umumiy ogohlantirish "nimani eksang, shuni o'rasan" maqolidan kelib chiqadi. Model unga qo'yilgan dastlabki farazlardan yaxshiroq bo'lishi mumkin emas. Doimo shuni esda saqlash muhimki, matematika dastlabki farazlardan mantiqiy xulosalarga ega bolish vositasi sifatida samaralidir, bunda model validligi matematik apparatga emas, bu farazlarga bog'liq, degan fikr kelib chiqadi. Modellarda eng ko'p uchraydigan kamchilik - juda soddalashtirilgan dastlabki farazlardir. Bu holatda modelni ishlab chiquvchi model qo'llanilishining kutilayotgan chegarasini ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega.

Agar model o'zining dastlabki farazlari yordamida mukammal berilgan bo'lmasa, model eksperimental tekshiruvdan o'tishi shart. Nihoyat, modelning bergan natijalari tabiiy tilga to'g'ri ko'chirilishi shart. Modellashtirishdagi odatiy xato shundan iboratki, tadqiqotchi yetarlicha tor modeldan olingan xulosalarni to'g'ridan-to'g'ri izohlay boshlaydi va bu yo'l bilan uning xulosalari umumiyligiga haddan ziyod yuqori baho beradi. Bu keng tarqalgan insoniy zaiflik – o'z ijodiga haddan tashqari berilib ketish, haqiqatda qodir bo'lmagan xususiyatlarni qayd etish matematiklar orasida "Pigmalion sindromi" sifatida ma'lumdir. Aytilganlarni jamlab shuni qayd etish mumkinki, matematik modellar tabiiy tilga nisbatan katta darajada ko'pgina dastlabki farazlardan murakkab xulosalarni qo'lga kiritishda ilgari harakatlanishga yordam beradi. Siyosiy va ijtimoiy hodisalarni modellashtirish murakkab vazifa bo'lib, bu

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

murakkablik siyosiy xulqni modellashtirish bilan bog‘liq quyidagi ikki implikatsiyada namayon bo‘ladi.

Birinchidan, modellashtirish nisbatan oddiy va muntazam kuzatiladigan xatti-harakatlardan boshlanadi va keyingina nisbatan murakkab tiplarga o‘tadi. Natijada, ba’zi modellashgan voqealar arzimas ko‘rinadiki, bu vaqtda “yirik masalalar”ga birdan kirishish qiyin bo‘ladi yoki mumkin bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, siyosiy muammolar tahlili uchun zarur bo‘lgan matematik vositalar, ehtimol, an’anaviy tabiiy-ilmiy muammolarni yechishda qo‘llanadigan vositalarga qaraganda rang-barang va murakkab bo‘lishi shart.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Джарол Б. Мангейм, Ричард К.Рич. Политология. Методы исследования.
2. Кузнецов Ю.Н. и др. «Математическое программирование»-М.:«Высшая школа».
3. Sh. R. M o‘minov. Matematik dasturlash. Texno-tasvir. - Buxoro, 2003.
4. 4.Хайдаров А.Т., Жумаев Ж., Шафиев Т.Р.” Основы математического моделирования” Бухара: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2022-216
5. 5.N.S.Sayidova “Gazlangan yopiq simmetrik sohadagi harakatini matematik modellashtirish” [matn] monografiya.fan va ta’lim, 2022-116b
6. 6.I.U. Shadmanov,Sh.N.Nasirova “Sonli usullar” [Matn] o’quv qo’llanma.
7. Buxoro:Sadriddin Salim Buxoriy,2023.-132b 7. http://www.intertrends.ru/
8. Toshpo’Latov F. U. et al. Bolalarni o ‘yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o ‘yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
9. Toshpo’Latov F. U. et al. Bolalarni o ‘yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o ‘yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
10. Математическое программирование в примерах и задачах. Акулич И.Л.http://rapidshare.com/files/6775262/ kulich_matem_natahaus.rar
11. Численные методы – Бахвалов (http://win-web.ru/uchebniki /load/ bahvalov_ chisl_meth-99460d52f5a71d4cc1b7dcd133dc6cea.html

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Norova Fazilat Fayzulloyevna** o’qituvchi, [**Норова Фазилат Файзуллоевна** преподаватель], [**Fazilat F. Norova,** teacher,]; manzil: O‘zbekiston, Buxoro sh. M.Iqbol ko`chasi 11-uy [адрес: Узбекистан, Бухара, ул. М.Икбол дом 11], [address: Uzbekistan, Bukhara city M.Iqbol street 11]; E-mail: mail: norovafazilat@gmail.com

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3 (1)

Original paper

SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSI VOSITASIDA TALABALARDA AXLOQIY VA ESTETIK KOMPETENTLIKNING INTEGRATSIYALASHUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

© L.H. Haydarova[1]✉

[1]Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

